6. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
7. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.
8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

9. www.ziynet.com – axborot-ta'lim tarmog'i

15-modul Direktorlar kengashining qo'mitalari: kadrlar va mukofotlash bo'yicha qo'mita, strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mita, ularning vazifa va funktsiyalari

15.1. Direktorlar kengashining kadrlar va mukofotlash bo'yicha qo'mitasi

15.2. Kadrlar va mukofotlash bo'yicha qo'mitaning vazifa va funktsiyalari

15.3. Kadrlar va mukofotlash bo'yicha qo'mitaning kompetnsiyasi va vakolatlari

15.4. Direktorlar kengashining strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitasi

15.5. Strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitaning vazifa va funktsiyalari

15.6. Strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitaning kompetnsiyasi va vakolatlari

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, blits-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.

15-modul bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 22 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b...

4. Zaynutdinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston, 2008. – 260 b.

5. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. "Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish" O'quv qo'llanma. -T.: 2011 y.

6. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.

7. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.

8. www.webofscience.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi

9. www.ziynet.com – axborot-ta'lim tarmog'i

**MAVZULAR BO‘YICHA MATN
ANNOTATSIYASI VA OXIRGI YANGILIKLAR**

1-mavzu. Korporativ boshqaruv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Reja:

- 1.1. Korporativ boshqaruv fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 1.2. Korporativ boshqaruv tushunchasi.
- 1.3. Korporativ boshqaruvning korporativ menejmentdan farqi.
- 1.4. Korporativ boshqaruvning kelib chiqish tarixi.
- 1.5. Korporativ boshqaruv tizimi, tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillari.
- 1.6. Korporativ boshqaruvning turli shakllardagi sub'ektlarga ta'siri.

1.1. Korporativ boshqaruvning fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Korporativ boshqaruv fanining maqsadi talabalarda korporativ boshqaruvning amaliyoti va modellari, tamoyillari, korporativ tuzilmalar faoliyatini boshqarishda ko'nikmalar hosil qilishdan iborat, yani

- korporativ boshqaruv haqida fikr yuritish;
- korporativ boshqaruvning huquqiy va institutsional (asoslarini) tushuntirish;
- korporativ tuzilmalar ishlashining mexanizmlari va ularning xususiyatlari aniqlash;
- korporativ boshqaruv kodekslarini rivojlantirish va unga ta'sir qiluvchi omillarni tavsiflash;
- korporativ tuzilmalar rivojlanishining integrasion strategiyasini o'rganish;
- aksiyadorlar huquqlari va ularni himoya qilishning amaliy jihatlarini o'rganish.

Fan mazmunini anglab yetish - talabalarning korporativ boshqaruvning nazariy evolyutsiyasi haqida o'rganish, amaliyotda korporativ boshqaruvning qo'llanishini o'rganish usullari kabi jihatlar uchun muhimdir.


Fanning asosiy jihat - korporativ boshqaruv amaliyotini, korporativ tuzilmalar ishlashining mexanizmlari va ularning xususiyatlari, korporativ tuzilmalar rivojlanishining integrasion strategiyasini o'rganish to'g'risida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, hamda korporatsiyada aksiyadorlar huquq va manfaatlarini himoya qilish va manfaatdor tomonlarning samarali munosabatlarini shakllantirish orqali uning o'рни va ahamiyati yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasida korxonalarni aksionerlashtirish jarayonida joriy etiladigan korporativ menejment usullari avval-boshidanoq quyidagi asosiy maqsadlarni ko'zlaydi:

- korxonalar faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini boshqaruv sohasida ularning mustaqilligini ta'minlash hisobiga yaxshilash;
- milliy moliya bozorining (kapital, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk bozorlari) turli bo'g'inlarini rivojlantirish hamda aholining korxonalar kapitalidagi ishtirokini kengaytirish;
- ichki bozorni turli mahsulotlar bilan to'ldirish va mahalliy korxonalarning raqobatbardosh. Uni darajasini oshirish maqsadida raqobatdosh bozor muhitini yaratish;
- korxonalarga to'g'ridan-to'g'ri va portfelli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.


Ko'rsatib o'tilgan maqsadli tamoyillarning aksariyati aksiyadorlik korxonalar ishi amaliyotida muvaffaqiyatli joriy etilmoqda, ammo bu jarayon yanada tizimli yondashuvni taqozo etadi. Aks holda, korporativ boshqaruv usullarining joriy etilishi jilovlanib, ko'pchilik aksiyadorlarda ularning asl salohiyati haqida noto'g'ri fikr paydo bo'ladi.

Korporativ boshqaruv tizimi — korporatsiya o'z aksiyadorlari manfaatlarini ifodalashi va himoya qilishi lozim bo'lgan tashkiliy modelni ifodalaydi. Bu aksiyadorlar, direktorlar kengashi, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlarning (xodimlar, kreditorlar, mahalliy hukumat, jamoat tashkilotlari) o'zaro aloqa tizimi bo'lib, undan maqsad amaldagi qonunchilikka rioya qilib, xalqaro andozalarga muvofiq foydani oshirish hisoblanadi (3-rasm).



3.-rasm. Korporatsiyalarni boshqarish sikli.

Korporatsiyalar o'z navbatida, davlat oldida korxonalarning masalan, yagona soliq to'lovchi vakolatxonalari sifatida ishtirok etishi mumkin. Har qanday korporativ birlashma faoliyat ko'rsatish maqsadiga ega bo'ladi va ushbu maqsadga erishishda boshqarishni bosqichma-bosqich amalga oshiradi. Bu quyidagi rasmda ko'rib o'tiladi (4-rasm)



4-rasm. Boshqarish bosqichlarini maqsadli amalga oshirish.

Ushbu tizimdagi oqimlar quyidagi tarzda taqsimlanadi:

- aksiyadorlardan bosh direktorga va menejmentga kapital kelib tushadi, bosh direktor va menejer aksiyadorlarga «shaffofi» moliyaviy hisobot taqdim etish majburiyatini oladi;
- aksiyadorlardan direktorlar Kengashi faoliyatini nazorat qilish kelib chiqadi, direktorlar Kengashi esa aksiyadorlarga axborot va individual hisobot taqdim etadi;
- bosh direktor va menejment direktorlar Kengachiga strategiyani iinalga oshirishning borishi haqida axborot va tezkor ma'lumotlar taqdim etadi, o'z navbatida u kompaniya va bosh direktor faoliyatini nazorat qilib boradi.

Korporativ boshqaruvning vazifalariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirish;
- aksiyalar narxining o'sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymatning jamg'arilishi;
- jamiyatning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- aksiyadorlik jamiyatlari biznes-rejalarini tasdiqlash va ular bajarilishini nazorat qilish hamda faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilishdan iboratdir.

1.2. Korporativ boshqaruv tushunchasi.

“Korporativ boshqaruv” atamasining o'zi tarixan 1970 - yillarning o'rtalarida AQSHda yuzaga kelgan. Keyinchalik, ushbu atama Yevropada keng tarqalib, unda korporativ menejment, korporativ huquq va korporativ tuzilmalarni yaratish sohalarida tadqiqotlar o'tkazilishi davom ettirilgan.

Tadqiqotlar natijasida shu aniq bo'ldiki, “korporativ boshqaruv” atamasi birinchi marta R.Ills tomonidan “korporativ tizimning strukturasi va faoliyati” mohiyatini ochib berish uchun qo'llanilgan.

Korporativ boshqaruv alohida fan sifatida 1980 - yillarda yuzaga kelgan.

“Korporativ boshqaruv” nomli birinchi kitob 1984 - yilda chop etilgan.

1993 - yildan boshlab “Corporate Governance: An International Review” deb nomlangan nazariy jurnal chiqa boshlagan.

O'zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:

- 1980-1985 - yilgacha mavjud bo'lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya'ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy halotining rivojlanishiga to'siq bo'ldi.

- 1987-1991 yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarning qatoashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug'urta sektori rivojlanishigayo'l ochildi.

- 1991-1994 yilaida - xususiylashtirish jaravoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatlari shakllandi, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko'rsatib berilmadi.

- 1994-1998 yillardagi korxonalarni xususiy lashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlari to'g'risida qonun, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiy lashtirish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investitsion fondlar, depozitarlar, registratorlar, auditotlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompanijalar; ularning filiallari, vakolatxonalari, qo'shma korxonalar tashkil etila boshlandi.

- 1998-2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning etishmasligi, kapitalning O'zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko'rib chiqila boshlandi. Bularning barchasi hissadorlarning o'z huquqini anglab etishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya'ni korporativ kodeks, hissadorlik to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar bo'yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me'yori va usullarining aprotatsivasidan keyin keng qo'llanila boshlandi.

2002-yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to'g'risidagi kodeksi, korporativ boshqaruv bo'yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan jori etilishi ta'minlanmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik jarayonlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksioner jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakolatlariga aniqlik kiritib beradi.

O'zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institutsional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Korporativ boshqaruv prinsiplari va amaliyoti tushunchalarining mazmun va mohiyati bu prinsip (lotincha so'z bo'lib. principum- asos, negiz, ibtido) degan ma'noni bildirib, korporativ boshqaruvning asosiy qonun-qoidasi, faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, bosh qoidalaridan iborat bo'ladi.

Korporativ boshqaruv tizimida ba'zi adabiyotlarda "prinsip" tushunchasi tamoyil tushunchasini bildirib, shu sohada tartib, qoidasini olgan tadrijiy yo'nalishni belgilab beradigan asosiy Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida "korporativ boshqaruv" tushunchasiga kompaniya ma'muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslar orasidagi mimosabatlar majmuasi deb ta'rif berilgan. Boshqa ta'riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati saxnaradorligini ta'minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me'yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining "Korporativ boshqaruv tamoyillari"

IHTT (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) Kengashining 1999-yil 26-27 maydagi yig'ilishida birinchi marta qabul qilingan bo'lib, u korporativ boshqaruvning xalqaro standartlari sohasida asosiy hujjat hisoblanadi. Shundan so'ng IHTT korporativ boshqaruv tamoyillari o'ziga xos mezonlari o'chovi bo'lib qoldi. Ularni standart sifatida moliyaviy barqarorlik bo'yicha Forum, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar o'z faoliyatlarida hamkorlik qilayotgan muayyan mamlakatlarda korporativ boshqaruvni yaxshilash maqsadida qo'llashni boshladi. Keyinchalik 2004 - yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda 30 mamlakat hukumatlari tomonidan vangi, qayta ko'rib chiqilgan "korporativ boshqaruv tamoyillari" tasdiqlandi. 2015- yilda esa ushbu tamoyillar yana ko'rib chiqilib, yangi tahrirda nafaqat IHTTga ya'zo davlatlari tomonidan balki G20 (katta yigirmatalik) davlatlari tomonidan ham tasdiqlandi. Hozirgi paytda ushbu tamoyillar "G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari" deb nomlangan bo'lib, u IHTT va G20 ning nafaqat a'zo davlatlar, shuningdek fond biijalari, investorlar, kompaniyalar va korporativ boshqaruvni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan boshqa shaxslarga ham moidallangan.

G20/IHTTning korporativ boshqaruv tamoyillari majburiy emas, balki tavsiyaviy harakterga ega bo'lib, hukumatlar tomonidan amaldagi milliy qonunchilikni baholash va takomillashtirish uchun shuningdek korporatsiyalar tomonidan korporativ boshqaruv tizimini yaratish va korporativ boshqaruv sohasida "ilg'or tajriba"ni ishlab chiqish uchun qo'llanishi mumkin.

Aksiyadorlarning huquqlari, ular bilan teng huquqli munosabatda bo'lish hamda mulkchilikning asosiy funksivalari tamoyili - bu korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishi va ruyobga chiqarilishini engillashtirishi hamda barcha, shu jumladan minoritar va xorijiy aksiyadorlar bilan teng huquqli munosabatda bolishini ta'minlash lozim. Barcha aksiyadorlar o'z buzilgan huquqlari uchun samarali tarzda zarami qoplash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

Institutsional investitorlar, fond bozorlari va boshqa vositachilar tamoyili - bu korporativ boshqaruv tizimi butun investitsiyalar zanjiri bo'ylab asosli rag'batlantiruvchi vositalarni ta'minlash hamda fond bozorlarining yaxshi korporativ boshqaruvga hissa qo'shgan holda faoliyat vuritishini ta'minlashi lozim.

Manfaatdor shaxslarning korporativ boshqaruvdagi roli tamoyili - bu korporativ boshqaruv tizimi manfaatdor shaxslarning qonun bilan voki o'zaro kelishuv asosida o'rnatilgan huquqlarini tan olishi hamda moddiy boyliklar, ish o'rinlarini yaratish va moliyaviy sojom korxonalarning barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'lida korporatsiyalar va manfaatdor shaxslar o'rtasidagi faol hamkorlikni rag'batlantirish lozim.

Axborot oshkoraligi va shaffofligi tamoyili - bu korporativ boshqaruv tizimi korporatsiyaga oid barcha muhim masalalar, shu jumladan kompaniyaning moliyaviy holati, faoliyat natijalari, mulkchilik va boshqaruvi to'g'risidagi axborotni o'z vaqtida va aniq oshkor etilishini ta'minlash lozim.

Kengashning majburiyatlari tamoyili - bu korporativ boshqaruv tizimi kengash tomonidan kompaniyaning strategik boshqaruvini, rahbariyat ustidan samarali monitoringni olib borishni hamda kengashning kompaniya va aksiyadorlarga hisobdorligini ta'minlash lozim.

Korporativ boshqaruv asosiy tip bo'lib ajralib turadi, boshqarish obyekti sifatida u o'z hususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko'zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsivalarning rivojlanishini ta'minlash.

Aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish.

Korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyati vujudga keladi va tartib qoidalarining tamoyillari, urf-odatlar va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ boshqaruvning maqsadi - korporatsiyalarning investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining barcha faoliyat turlaridan imkoni qadar yuqoriroq foyda olishdir.

Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning samarali usullarini, xalqaro standartlarni joriy etish uchun korporativ boshqaruvning milliy modelini xorijiy tajribalar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

1.3.Korporativ boshqaruvning korporativ menejmentdan farqi.

Korporatsiya (lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil sub'yektini – huquqiy shaxsni tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir .

Korporatsiyalar - mulkchilikning hissadorlik shaklining zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Unda bir necha mulkdorlar manfaatlarini birlashadi, yagona maqsad doirasida investorlar kapitallari birlashtiriladi .

Mamlakat qonunchiligida "korporatsiya" tushunchasi yuridik jihatdan mustahkamlab qo'yilmaganligi sababli bu tushunchani talqin qilishda ikki xil ma'no kuzatiladi. Ayrim belgilar bo'yicha korporatsiyalar qatoriga tijorat tashkilotlari hisoblangan va a'zolikka asoslangan barcha xo'jalik sub'yektlari, boshqa belgilar bo'yicha esa – faqat aksiyadorlik jamiyatlari kiritiladi.

Biroq mamlakat iqtisodiy - huquqiy tizimida mohiyatiga ko'ra kichikroq shartliliklar bilan, aynan aksiyadorlik jamiyatlari jahon xo'jalik va huquqiy amaliyotida umum qabul qilingan korporatsiya tushunchasi bilan tenglashtiriladi.

Aytib o'tish kerakki, korporatsiya tushunchasii hozirgi sharoitlarda yana bir o'ziga xos jihatni kasb etmoqda. U bir nechta yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan xo'jalik sub'yektini belgilash uchun foydalanilib, ularning har birini boshqa mulkiy munosabatlar, birgalikda biznes yuritish, umumiy maqsadlar va manfaatlar, umumiy tashkiliy struktura bilan bog'liq mustaqil iqtisodiy sub'yekt sifatida ko'rib chiqish mumkin. Shunday qilib, O'zbekistonda korporatsiya mustaqil aksiyadorlik jamiyati bo'lishi mumkin.

Xo'jalik faoliyatini korporativ tashkil qilishning keng imkoniyatlari ularning afzalliklaridan foydalanishga asoslanib, korporatsiyalar yaratish variantlaridan foydalangan holda firmalararo munosabatlarni modellashtirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi.

Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatamiz:

1. Aksiyalar chiqarish orqali pul mablag'lari jalb qilish qobiliyati cheklanmagan sonli investorlarning mablag'larini jamlash imkonini va bu investorlarga jamiyatni boshqarishda ishtirok etishda ma'lum bir tanlov huquqini beradi.

2. Boshqariluvchanlik muammosini hal etilishi yengillashadi. Tashiliy rasmiylashtirishning tugallanganligi, vakolatlar va javobgarliklarni aniqlashda reglamentga rioya qilish nazorat funksiyalarini aksiyadorlik jamiyati boshqaruv organlari o'rtasida taqsimlash imkonini beradi, bu esa boshqaruv jarayonini professionallashtirish imkoniyatini anglatadi.

3. Aksiyadorlar tarkibiga kirish va chiqishning soddalashtirilgan tarkibi manfaatdor shaxslarning o'rnini almashtirish uchun keng imkoniyatlar va mos ravishda, investisiya taklifi dinamikasi yuqori bo'lgan sharoitlarda yuqori moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

4. Cheklangan javobgarlik tamoyili risklarni kamaytirishga imkon beradi. Cheklangan javobgarlik tamoyilining qo'llanilishi risklarni aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasida taqsimlash orqali yirik korporatsiyalar yaratish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Korporativ boshqaruv bu – biznesning tashkiliy - huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashtirishini boshqarish, qabul qilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir.

Korporativ boshqaruvni uning xususiyatlari boshqaruv ob'yekti sifatida korporatsiyaning o'ziga xosliklari bilan izohlanadigan alohida bir turga ajratib, aksiyadorlar manfaatlarining ustuvorligi hamda ularning korporatsiyaning rivojlantirish va boshqarishdagi roliga asoslangan, aksiyadorlarning o'zaro aloqa qilishini ko'zda tutadigan (korporativ kommunikatsiyalar) mulkchilik huquqining amalga oshirilishini hisobga oladigan, butun korporatsiyaning rivojlantirish strategiyasiga asoslangan va nihoyat, korporativ madaniyatni, ya'ni xulq - atvor tamoyillari, umumiy an'analar kompleksini vujudga keltiradigan boshqaruv sifatida tavsiflash mumkin.

“Korporativ boshqaruv” tushunchasiga yagona ta'rif mavjud emas. Jahon bankining ta'rifiga ko'ra korporativ boshqaruv – qonunchilik, me'yorlar va hususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasi tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi va oqibatda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilingan holda o'z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko'paytirish orqali o'zining mavjudligini saqlab qolishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining korporativ boshqaruv tamoyillarida “korporativ boshqaruv” tushunchasiga kompaniya ma'muriyati, uning boshqaruvi, aksiyadorlari va boshqa manfaatdor shaxslari orasidagi munosabatlar majmuasi deb ta'rif berilgan.

Boshqa ta'riflarga binoan, korporativ boshqaruv bu:

- kompaniya faoliyati samaradorligini ta'minlash va mulkdorlar, hamda boshqa manfaatdor shaxslar (kompaniya xodimlari, kreditorlar, hamkor korxonalar) manfaatlarini himoya qilish masalalari bo'yicha kompaniya menejerlari va egalari (aksiyadorlari) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi;

- korporativ mulkning egalari nazoratidan bevosita uzoqlashtirilishi oqibatida yuzaga

kelgan muammolarni hal qilishga qaratilgan barcha qonunlar, me'yorlar, nizomlar, tadbirlar va tartiblar;

- kompaniyani samarali boshqarishni tashkil qilishda asosiy manfaatdor shaxslarning manfaatlarini birlashtirishni amalga oshiriluvchi tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy tadbirlar majmuasi.

Korporatsiyalar aktivlarni joylashtirish siyosatini o'ziga qamrab oladi. Odatda har qanday xo'jalik sub'yektlari ma'lum biznes turlari bo'yicha mablag'larini asosiy va aylanma aktivlarga investisiya qiladi. Hozirgi kunda deyarli barcha kichik va yirik biznes korporatsiya shaklida tashkil qilingan. Misol uchun: British Airways, Nokia, Microsoft, Nestle, Sony, Unilever, Volkswagen va boshqalar.

Korporatsiyalar 3 asosiy farqli jihatlariga ega bo'ladi:


1. Korporatsiyalar o'zlarining egalaridan yuridik jihatidan mustaqildir va soliqlarni to'laydi.

2. Korporatsiyalar mas'uliyati cheklangan, qaysiki, aksionerlar kompaniya qarzlarini uchun javobgar bo'la olmaydi.

3. Har doim ham korporatsiya egalari menejer bo'la olmaydi, bu egalik qilishning boshqarish bilan cheklanishiga olib keladi.

Korporativ boshqaruv asosiy tip bo'lib ajralib turadi, boshqarish ob'yekti sifatida u o'z xususiyatlariga ega hisoblanib, boshqaruv aksiyadorlarning foydasini ko'zlagan holda amalga oshiriladi va korporatsiyalarning rivojlanishini ta'minlash, aksiyadorlarning huquqlarini hisobga olish, korporatsiya strategiyasiga asoslangan holda aksiyadorlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bunday boshqaruv natijasida korporativ madaniyati vujudga keladi va tartib qoidalarining tamoyillari, urf-odatlar va ularni olib borish tartiblar kompleksi shakllanadi.

Korporativ muhitni shakllantirish jarayonida turli xil shakldagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va turli xil shaxslar jalb qilinadi. (Rasm-1).



Rasm-1. Korporativ muhit

Korporatsiya rahbariyati qarorlar qabul qilish jarayonida jamiyatni tashkil etuvchi turli xil xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarning manfaatlarini hisobga olishi lozim.

Aksionerlar korporatsiyalar bilan alohida iqtisodiy aloqalarni tashkil etadi: ular korporatsiyaning tashkil etilishining sababchilari bo‘lib, “xatarli” kapitalning yetkazib beruvchilari hisoblanadi, ularning kaptali orqali korporatsiyalarning rivojlanish va o‘ssishi kuzatiladi. Korporatsiyalarning barcha harakat va jarayonlarida aksionerlarning manfaati hisobga olinishi maqsadga muvofiqdir.

Ist’yemolchilar, o‘ziga alohida e’tibor talab qiluvchilardan biri hisoblanib, korporatsiyalar ularsiz faoliyat olib borishi mumkin emas. Ist’yemolchilar sifatli mahsulot va xizmatlarni qoniqarli darajadagi narxda olishni va talabga javob beradigan xizmat turlarini va haqiqiqatga yaqin reklamalarni qabul qilishni istaydi. Agarda korporatsiyalar ist’yemolchilarning hohishini qoniqtirishga barcha kuchini sarflamasa, korporatsiyalarning asosiy strategik maqsadlarini quldan boy berilganligidan dalolat beradi va korporatsiyalar o‘zoq va qisqa muddatli omodsizliklarga duch kelishi mumkin.

Xizmatchilar, korporatsiyalardan oddiy talablarni qondirishini so‘raydi, ya’ni oddiy ish haqini to‘lashdan boshlab, to ish beruvchi va xizmatchilar bilan buladigan boshqa jihatlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Imkoniyatlarning tengligi, ish joyida sog‘liqni ximoya qilish, moliyaviy bexatarlik, shaxsiy hayotga aralashmaslik, mustaqillik va o‘ziga ta’luqli yashash sharoitini ta’minlashni talab qiladi.

Mahalliy aholi, ishlab chiqarish jarayonida korporatsiyalar ularga katta ta’sirini kursatadi. Aholi korporatsiyalardan mahalliy muammolarda ishtirok etish va ularning muammolarini yechishda bevosita ishtirokini: ya’ni ta’lim, transportni tashkil etish, dam olish uchun sharoit qilish, sog‘liqni saqlash tizimini, atrof muhitni ximoyalashni kutadi.

Jamiyat, korporatsiyalar ularga xalqaro va milliy darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ularning faoliyati xar xil shakllardagi korxona va tashkilotlarning, shuningdek, boshqarish tuzilmalarning va ommaviy axborot vositalarining e’tiborida bo‘ladi.

Korporatsiyalardan milliy va xalqaro miqyosidagi soliq va boshqa majburiy to‘lovlarini to‘lash kabi muammolarni yechish amalga oshirishini kutadi. Korporatsiyalarning jamiyat oldidagi asosiy majburiyatlaridan biri o‘z iqtisodiy hayotiyligini qulab quvvatlash va saqlab qolishdan iboratdir. Shu orqali ish joyilarini ko‘paytirish, ya’ni dunyodagi global muammolaridan biri ishsizlikning oldini olish va ishlab chiqarishda ekologik xavf xatardan ximoyalashi lozimdir.

Mol yetkazib beruvchilar, odatda ularning asosiy qismini kichik korxonalar, ya’ni korporatsiyalar bilan xaqqoniy savdo aloqalarini, va o‘z vaqtida to‘lovlarni amalga oshirishni va ijobiy xamkorlikni amalga oshirishni avzal kuradi. Korporatsiyalarning va ularning mol yetkazib beruvchilari o‘rtasidagi xamjihatlik iqtisodiy tizimning asosiy bug‘ini hisoblanadi, chunki kichik korxonalarning hayotiyligi korporatsiyalarning ularga nisbatan jiddiy va xaqqoniy aloqalariga bog‘iq hisoblanadi.

Korporatsiyalar turli xil prinsipial qarorlarini qabul qilishda korporativ aloqalar ishtirokchilari ehtiyojlari tengligini hisobga olsa, korporatsiyalar mohiyatini va muhimligini oshiradi. Shu maqsadda yirik korporatsiyalar korporativ muhitni va o‘z aro aloqalarni mustahkamlash uchun qo‘yidagi hujjatlar ro‘yxatini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi:

- ☐ Ahloq kodeksi;
- ☐ Ish haqi to'lash va xizmatchilarni rag'batlantirish, ularning xuquqlarini ximoyalash, shaxsiy hayotga aralashmaslik, erkinlik bo'yicha takliflarni kiritish;
- ☐ Ishchilarni ish joylarida xavf xatardan saqlash, sog'liqni saqlashni ta'minlash va ularga oid me'yoriy va tartiblarni o'rnatish;
- ☐ korporatsiyalarning xayriya faoliyati qoidalarini tartiblashtirish;
- ☐ korporativ munosabatlardagi mavjud menejerlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, dasturlarni axborotlashtirish.

Korporativ boshqaruv va korporativ menejment tushunchalarini bir-biri bilan adashtirib yuborish hollari mavjudligini ta'kidlash joiz. Aytib o'tamizki, menejment korporativ boshqaruvni ham qamrab oladigan torroq tushuncha hisoblanadi. Bundan tashqari, korporativ menejment faqat kompaniya menejmenti (oliy rahbariyat bo'g'ini) tomonidan, korporativ boshqaruv esa kompaniya boshqaruv organlari (aksiyadorlar, direktorlar kengashi, bosh direktor va menejment) tomonidan amalga oshiriladi. Korporativ boshqaruv ko'proq strategik xarakterga ega bo'lib, kompaniyaning tashqi muhitda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yo'naltirilgan bo'ladi (aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, hukumat organlari, hamkorlar, kreditorlar va boshqalar bilan aloqa qilish).

Korporativ boshqaruvni (corporate governance) menejment (management) bilan tenglash to'g'ri emas. Bu turli tushunchalardir. Korporativ boshqaruv uchun muhim narsa – halol, mas'uliyatli, ravshan korporativ hulq va hisobotni ta'minlashga qaratilgan mexanizmlardir. Menejment esa korxona biznesining professional mutaxassislar tomonidan yuritilishiga qaratilgan mexanizmlarni nazarda tutadi. Korporativ boshqaruv menejmentga nisbatan rahbarlik qilishning yuqoriroq pog'onasida joylashgan bo'lib, kompaniya faoliyatini uning aksiyadorlari manfaatlari yo'lida boshqarilishini ta'minlaydi. Korporativ boshqaruv va menejment vazifalarining o'zaro kesishuvi faqat kompaniyani rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Korporativ boshqaruvning maqsadi korporatsiyalarning investisiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining barcha faoliyat turlaridan imkoni qadar yuqoriroq foyda olishdir. Normal holatdagi korporativ boshqaruvni amalga oshirish uchun korporativ tizimga tez moslasha olish uchun uning qulay yo'llarini topish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqsadni yechishda korporatsiya menejmenti, marketing oldida har tomonlama katta hajmli, ko'p rejali ishlarni amalga oshirilishi kutib turadi. Belgilangan ishlarni quyidagicha bosqichma - bosqich amalga oshirish zarurdir:

- ☐ korporatsiya faoliyati maqsadlarini va mulkdorlarning jamlash usullarini to'g'ri aniqlash;
- ☐ aksiyadorlar nazorati ostida korporatsiyalarni qayta tarkiblashni o'z-o'zini boshqarish darajasigacha olib borish;
- ☐ qo'yilgan maqsadlarga mos holda tashkiliy tarkibni tanlash: ishlab chiqarish, mahsulotni sotish, innovatsiya va marketing;
- ☐ Korporatsiya faoliyatini yagona tamoyillarni ishlab chiqqan holda ya'ni missiya, falsafa va boshqa asos bo'luvchi hujjatlar negizida ishlab chiqish;

□ ayniqsa oliy menejerlarga va ishchilarga haq to‘lash falsafasini o‘zgartirish.

Mulkchilikning aksiyadorlik shaklini korporativ boshqarish usullarini joriy etishda ko‘rsatib o‘tilgan jihatlarining mavjudligi korporativ xamjamiyatning turli ishtirokchilari manfaatlarining uyg‘unligini va bozor talablari asosida aksiyadorlik korxonalarini rivojlantirishning raqobatbardosh strategiyalaridan foydalanishni taqazo etuvchi sifat jihatdan yangi menejmentni shakllantirishni talab etadi.

Bundan tashqari, korporativ hamjamiyatning turli ishtirokchilari manfaatlarini keskin bozor iqtisodiyoti pozisiyalaridan bir - biriga bog‘lay oladigan va tez o‘zgaruvchan raqobat muhitida korxonalarni rivojlantirishning moslanuvchan strategiyasini shakllantirishga qodir yangi avlod menejerlarini jalb qilmasdan turib biznesini korporativ boshqarish vazifalarini bajarib bo‘lmaydi.

Respublika korxonalarida korporativ menejment va korporativ munosabatlarning hozirgi ahvolini hisobga olib, korxonalarda korporativ menejmentni takomillashtirishning birinchi o‘rindagi vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

□ kuzatuv kengashi a‘zolari va boshqaruvchilar tomonidan hamda aksiyadorlarning o‘zi tomonidan ham korporativ huquqning mazmun-mohiyati va imkoniyatlarini chuqur anglab yetilishi;

□ bevosita aksiyadorlik korxonalari boshqaruv faoliyatini tartibga soluvchi to‘liq me‘yoriy xujjatlar paketini ishlab chiqish va qabul qilish;

□ aksiyadorlik jamiyatlari ishini ongli boshqarishga aksiyadorlarning keng doirasini eng yuqori darajada jalb qilish;

□ korxonalar faoliyatining aksiyadorlar va investorlar uchun maksimal ochiqligi va oshkoraligini ta‘minlash;

□ aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvining yuqori va ijro organlari o‘rtasidagi o‘zaro ta‘sir darajasini oshirish.

“Oqilona ish haqi” tamoyilidan har bir ishchining real qo‘shgan hissasini hisobga olgandagi to‘lanadigan ish haqi tamoyiliga o‘tish, joriy foydaga ega bo‘lish, korporatsiyaning kapitalizatsiyalangan foydasini shakllantirish muammosini hal qilishda aksiyadorlarning shaxsiy qiziqishlarini korporativ menejment orqali yechish mumkin.

O‘zbekiston respublikasida 1996 yil 26 aprel kuni “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan.

1.4. Korporativ boshqaruvning kelib chiqish tarixi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, iqtisodiy o‘sishning yuqori sur‘atlarini hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlay oladigan ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobat muhitini shakllantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi. O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarini isloh qilish tajribasi shuni tasdiqlamoqdaki, ma‘muriy - rejali iqtisodiyotdan xo‘jalik yuritishning bozor modeliga uyg‘un o‘tishning muhim vositasi xususiylashtirish va aksonerlashtirish bo‘lib, bu xaqiqiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga va xususiylashtirilgan mulkni korporativ boshqarishning samarali usullarini joriy etishga ko‘maklashadi. O‘zbekistonning korxonalarida korporativ

menejmentni shakllantirish uchun shart - sharoitlar 1997 - 1998 yillarda boshlandi va muayyan rasmiy - tashkiliy asoslar mustaqillikning ilk yillaridayoq sobiq davlat korxonalarining o'zgartirilishi davomida yuzaga keldi.

Korporativ boshqaruvning kelib chiqishi va rivojlanishi bir nechta bosqichga bo'lish mumkin:

1. XVII asrda Ost - Ind (East India Company) kompaniyasi 24 a'zodan iborat bo'lgan direktorlar kengashini tashkil qildi. Birinchi marta mulkchilik va boshqaruv vazifalari bo'lib olindi;
2. 1776 yili Adam Smit o'zining "Halqlarning boyligining sabablari va tabiatlari haqidagi tadqiqotlari" asarida ta'kidlaydiki: "Tashlab qo'yilgan mulklar boshqaruv uchun muammolarni keltirib chiqaradi", ya'ni boshqaruv va menejerlarni nazorat qilish uchun salbiy mexanizm hisoblanadi;
3. 1844 yilda birinchi marta aksionerlik jamiyatlari haqida qonun qabul qilindi. Qonunchilikka mulkchilikning yangi javobgarligi shaklidagi majburiyatlari joriy etildi;
4. 1931 yilda A. Berli va G. Minzlar «Zamanoviy korporatsiya va xususiy mulkdor» nomli maqolasini nashrdan chiqardi (AQSH). Unda birinchi marta mulkchilik vazifalarini nazorat vazifalaridan to'la to'kis farqi ajratib berildi;
5. 1933-1934 yillarda AQSHda qimmatbaho qog'ozlar haqida qonun qabul qilindi, 1933yilda qabul qilingan ushbu qonun fond bozorini tartibga soldi. Ushbu bosqichda "Qimmatbaho qog'ozlar va birjalar to'g'risida"gi (1934y) aktga asosan axborotlarning ochiq berilishi imkoni mavjud bo'ldi va ushbu yili qonunlarni bir tartibda nazorat qiladigan, qimmatbaho qog'ozlar bozorini va birjalar faoliyati bo'yicha komissiya tuzildi;
6. 1968 yilda Yevropa ittifoqi «Kompaniyalar to'g'risida» qonun qabul qildi;
7. 1990 - yillarning boshida – tadbirkorlik imperatsiyasi inqirozga uchradi. Buyuk Britaniyada kelishmovchiliklar yuzaga keldi: bir qator kompaniyalar (Polly Peck, BCCI, Maxwell), aksiyadorlarni aldash bilan shug'ullanganliklari korporativ boshqaruvning amaliyotda investorlarni himoyalashni takomillashtirish kerakligini ko'rsatdi;
8. 1992 yil. Kedberi qo'mitasi birinchi marta korporativ boshqaruvning moliyaviy jihatlari bo'yicha kodeksni nashr etdi. (Buyuk Britaniya). 1993 yildan boshlab Buyuk Britaniya fond birjasidagi listingga kirgan kompaniyalar kodeks qanday bajarilayotganligi haqida hisobot bera boshladi;
9. 1992 – 2003 yillarda korporativ boshqaruv bo'yicha qator ma'ruzalar qabul qilindi, shundan asosiylari:
 - 1) Angliyada Rutmanning moliyaviy hisobot va ichki nazorat haqidagi ma'ruzasi;
 - 2) Korporatsiyalar ishtirokchilarining har tomonlama hisobi haqidagi Kinganing ma'ruzasi;
 - 3) Angliyalik Grinberining yuqori mansab shaxslarini rag'batlantirish to'g'risidagi ma'ruzasi;
 - 4) Angliyalik Xempelaning korporativ boshqaruv to'g'risidagi ma'ruzasi;
 - 5) Fransiyalik Vyenoning korporativboshqaruvning asosiy tamoyillari haqidagi ma'ruzasi;
 - 6) Niderlandiyalik Pidersning korporativ boshqaruvning umum qabul qilingan andozalariga rioya qilmaslik va javobgarlik haqidagi ma'ruzasi;

- 7) AQSHda Sarbeyns - Okslining moliyaviy ekspertlarning auditi bo'yicha qo'mita tarkibini aniqlash bo'yicha qonuni;
- 8) Angliyalik Xiggsning ish faoliyatini bajara olmayotgan direktorlar haqidagi ma'ruzasi.

O'zbekistonda ham mahalliy korporativ boshqaruvni shakllantirishning bir nechta bosqichlari mavjud:

1. 1980 – 1985 - yilgacha mavjud bo'lgan administrativ - buyruqbozlik usullari ya'ni davlatning markazlashgan tarzda iqtisodiyotni boshqarishi makroiqtisodiy halotining rivojlanishiga to'siq bo'ldi.
2. 1987 - 1991 yillari markazlashgan monopollashgan iqtisodiyot tugatildi va korporativ boshqaruvga asos solindi. Korxonalarni boshqarish ishchilarning qatnashuvi orqali mehnat jamoasining maslahati orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda banklarning moliyaviy kapitallari va iqtisodiyotning sug'urta sektori rivojlanishiga yo'l ochildi.
3. 1991 - 1994 yillarda – xususiylashtirish jarayoni boshlanib, birlamchi mulkni taqsimlash amalga oshirildi. Birinchi hissadorlik jamiyatlari shakllandi, lekin hissadorlarning huquqlari aniq ko'rsatib berilmadi.
4. 1994 - 1998 yillardagi korxonalarni xususiylashtirish davri. Hissadorlik jamiyatlari to'g'risida qonun, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi, Fuqoralik kodeksi, xususiylashtirish to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi. Bozor infratuzilmasi shakllandi, birlamchi investision fondlar, depozitarilar, registratorlar, auditorlik, konsalting firmalari shakllanishi bilan bir qatorda yirik xorijiy kompaniyalar, ularning filiallari, vakolatxonalari, qo'shma korxonalar tashkil etila boshlandi.
5. 1998 - 2001 yillar defolt, moliyaviy resurslarning yetishmasligi, kapitalning O'zbekistondan chiqib ketishi, korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanmaganligi kabi holatlar yuzasidan kelajakdagi mulklarni va kapitallarning taqsimlanishi jarayoni asosida ko'rib chiqila boo'landi. Bularning barchasi hissadorlarning o'z huquqini anglab yetishi asosida amalga oshirildi. Aniq korporatsiyalar misolida korporativ boshqaruv amalga oshirilib, ularning hammasi davlatning bazaviy hujjatlari asosida ya'ni korporativ kodeks, hissadorlik to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonunlar bo'yicha, shuningdek, jahon amaliyotida sinalgan me'yor va usullarining aprobatasiyasidan keyin keng qo'llanila boshlandi.
6. 2002 yildan hozirgi vaqtgacha korporativ tartib to'g'risidagi kodeksi, korporativ boshqaruv bo'yicha milliy kengash, ushbu kodekslarning yirik korporatsiya va kompaniyalar tomonidan joriy etilishi ta'minlanmoqda. Korporativ kodeks aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlarini yuritish tartiblarini belgilab berish bilan bir qatorda aksioner jamiyatlarida boshqarish organlarining ham vakalotlariga aniqlik kiritib beradi.
7. O'zbekiston Respublikasi korxonalari faoliyatida korporativ boshqaruv usullarining institusional qaror topishi jarayoni quyidagi omillar bilan izohlanadi:
8. Davlatning korxonalarni xususiylashtirish va ularning moliyaviy ahvolini mustahkamlashga qaratilgan choralari;
9. Davlat korxonalarini aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil qilish shaklida davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni, emissiya ko'lamlarini kengaytirish va ularning aksiyalarini muomalaga chiqarish;

10. Korxonalar aksiyadorlari huquqlarini davlat va uning vakolatli idoralari tomonidan himoya qilinishining mustahkam qonunchilik va institusional bazasini yaratish.

Korporatsiyalarning va korporativ uyushmalarning asosiy turlari.

Korporatsiya turlari:

- To'liq shirkatlar va kommandit xo'jalik shirkatlari;
- Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar;
- Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar;
- Aksiyadorlik jamiyati (ochiq va yopiq).

Korporativ birlashmalar turlari:

- Xo'jalik uyushmasi;
- Konsern;
- Konsorsium;
- Kartel;
- Konglomerat;
- Trest;
- Sindikat;
- Xolding.

Tadbirkorlik korporatsiyalari foyda olish uchun yaratiladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- AQSHda korporatsiyalar faqat aksiyadorlik kapitali asosida tuziladi;
- Yevropada ma'suliyati cheklangan jamiyat, shirkatlar, kooperativlar, ochiq aksioner jamiyatlari, yopiq aksioner jamiyatlari.

Tadbirkorlik korporatsiyasi sifatida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- alohida tijorat tashkiloti;
- integratsiyalangan korporativ tuzilma (konsern, xolding va boshqalar).

1.5. Korporativ boshqaruv tizimi, tamoyillari va unga ta'sir etuvchi omillari.

Korporativ boshqaruvning asosiy tamoyillariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Adolatlilik — boshqaruv qoidalari adolatli bo'lib, halol raqobat- chilik sharoitida kompaniyaga muvaffaqiyatli harakat qilishga imkoniyat berishi va Shu bilan birga barcha qatnashchilar, shu jumladan minoritar aksiyadorlarning ham huquqlarini ta'minlash

Ravshanlilik — kompani yaga aloqador barcha muhim axborotlar, shu jumladan mulkchilik shakli, moliyaviy holati, faoliyat natijalari o'z vaqtida va aniq oshkora qilinishini kerak.

Hissadorlik — barcha boshqaruv organlarining vazifalari va vako- latlarini aniq ajratib berishni, Ijroiya organining Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarga hisob berish majburiyatini

yuklaydi.

Javobgarlik — aksiyadorlar va boshqa manfaatdor shaxslar oldida ma'muriyat hamda kompaniya faoliyatiga bog'liq qarorlarni qabul qiluvchi shaxslarning javobgarligi.

Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv tizimi korporativ boshqaruv tamoyillarining amalga oshirishini ta'minlashi zarur.

Respublika aksiyadorlik korxonalarida korporativ boshqaruv usullarini joriy etishning eng muhim xususiyatlariga quyidagilarni kiritish lozim:

1) korxonalar nisbatan <yosh>ligi va bosqichma-bosqich rivojlanishi, mustaqillik yillarida ularning deyarli qaytadan shakllanishi;

2) respublika moliya bozorining ko'pgina tarmoqlarini islohotlar o'sishining past sur'atlari, bularga ma'lum darajada korxonalarda korporativ menejmentni amalga oshirish ko'lamlari va sifati bilan bog'liq;

korxonalarning qayta tashkil etilishi jarayonlarini faollashtirish va korxonalarda mavjud korporativ madaniyat darajasini oshirishga qaratilgan yuqori rivojlangan infratuzilmasining yetarlicha mavjud emasligi;

3) xo'jalik yurituvchi subyektlar talablarini yetarlicha o'rganmaslik va zamonaviy marketing yutuqlaridan yetarli darajada foydalanmaslik oqibatida;

4) aksariyat korxonalar boshqaruv ijroiya organlarining nafaolligi emasligi, ularning biznesga investitsiyalarni jalb qilish uchun transparantlikning ahamiyatiga yetarlicha baho bermasligi tufayli ushbu korxonalar faoliyatining past darajadali;

5) boshqaruv ijroiya organlariga moliyaviy oqimlarni boshqarishni va dividend siyosati taqdirini butunlay topshirib qo'ygan aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruv organlari va aksiyadorlar tomonidan ularning ishini yetarlicha nazorat qilinmasligi;

6) korxonalar tomonidan korporativ boshqaruvga oid ilg'or xorijiy tajribaning sust o'rganilishi va o'z ishi amaliyotiga past sur'atlarda joriy etilishidan iborat.

Korxonalarda korporativ boshqaruv usullari qaror topishining ko'rsatib o'tilgan xususiyatlari, bir tomondan: O'zbekiston Respublikasida o'tish davrining asosiy yukini «o'ziga olgan»ligi alohida roli bilan belgilanadi, bu yuk milliy iqtisodiyotni qayta qurishning kardinal tuzilmasiga hamda ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishda an'anaviy yondashuvlarning o'zgarishiga bog'liqdir.

Boshqa tomondan, korporativ boshqaruv usullarini joriy etishning past sur'atlari va bunga bog'liq kamchiliklarni aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqaradigan me'yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi, O'zbekiston Respublikasida aksionerlashtirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, korxona boshqaruvi oliy organlari va aksiyadorlarning amaliyotda korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilishdagi sustkashligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, aksiyadorlik jamiyatlarining rahbariyati va menejerlari tomonidan

biznesni korporativ boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani yetarli darajada o'rganilmaganligi, shuningdek, mazkur muammo nazorati hamda korxona faoliyatini boshqarish organlari tomonidan kompleks yondashuvning yo'qligi kooperatsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur nazorat va boshqaruv organlari aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarish jarayonlarini realizatsiya qilishning o'ziga xos tomonlarini yetarlicha hisobga olmaydi.

O'zbekiston Respublikasida mulkchilikning aksiyadorlik shakli aksiyadorlar uchun o'zini-o'zi qoplaydigan va investorlar uchun foydali bo'lgina qolmasdan, balki xo'jalik yuritishning bunday shakli mulkchilikning boshqa shakllariga (davlatga tegishli, qo'shma, xususiy) nisbatan samarali ekanini yaqqol ko'rsatuvchi namuna vazifasini ham bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi quyidagi shakllarda tijorat tashkilotlarini tashkil qilish imkoniyatini nazarda tutadi:

- ochiq aksiyadorlik jamiyati va yopiq aksiyadorlik jamiyati;
- mas'uliyati cheklangan jamiyat va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat;
- to'liq shirkat va kommandit shirkat;
- ishlab chiqarish kooperativi;
- xususiy korxona;
- unitar korxona.

Aksiyadorlik jamiyati (korporatsiya) investorlar (aksiyadorlar) kapitalini birlashtirish yo'li bilan tashkil qilinadigan hamda o'z aksiyadorlari foydasi manfaati yo'lida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan tijorat tashkilotining tashkiliy-huquqiy shaklini bildiradi.

Jamiyatning ajratib turuvchi xususiyatlari — egalik qilish va boshqaruv funksiyalarining ajratilishi:

— o'z mulkini joriy boshqarishda shaxsan qatnashishdan ixtiyoriy voz kechgan mulkdor (aksiyador);

— jamiyat mulkiga egalik qilmaydigan va begona mulkni boshqaradigan menejerlar;

— mulkdor (aksiyador) jamiyat mulkining emas, balki o'z hissasining (aksiya, ulush) egasidir. Kompaniya mulkining egasi — huquqiy shaxs bo'lgan kompaniyaning o'zidir.

Tomonlar manfaatlari bir-biriga to'g'ri kelmasligi va sezilarli darajada farqlanishi mumkin. Qanday qilib, qaysi usullar yordamida menejerlarning hokimiyatini cheklash va aksiyadorlarning manfaatini himoya qilish mumkin?

Shu bilan birga, menejerlarni bo'lg'ib tashlamaslik, ularning tashqi sharoit o'zgarishlariga befarq bo'lmazligiga qanday qilib erishish mumkin?

Aynan shu masalalar faqat korporativ boshqaruv tomonidan hal qilinishi mumkindir.

Boshqa shakldagi tijorat tashkilotlariga nisbatan ochiq aksiyadorlik jamiyatining afzalliklari:

- soni minglab shaxslargacha chiqishi mumkin bo'lgan qatnashchilarning son tarkibiga hech qanday cheklanishlarning yo'qligi;

- fond bozori orqali katta hajmdagi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati;
- jamiyat majburiyatlari bo'yicha aksiyadorlarning javobgarligi faqat ustav kapitalidagi ulushi miqdorida cheklanganligi. Aksiyadorlar jamiyat majburiyatlari bo'yicha javob bermaydi.

Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarining tavakkaichiligi ko'p sonli aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi;

- aksiyalar erkin oldi-sotdi predmeti bo'lib, ularga egalikning o'zgarishi aksiyadorlik kapitali va aksiyadorlarga nisbatan huquq hamda majburiyatlarning o'zgarishiga olib kelmaydi;

- yirik kompaniyaning ustunligidan foydalanish (murakkab, ilm
- fan yutuqlarini ishlatishni talab qiluvchi mahsulotlarni ishlab chi- qarish imkoniyati, o'zlik va qarz sarmoyani jalb qilish orqali ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish imkoniyatlari va hokazo).

1-jadvalda ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining farqli jihatlari berilgan.

Ochiq aksiyadorlik jamiyati kamchiliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aksiyadorlik jamiyatini tuzishda tashkiliy qiyinchiliklar (ko'plab hujjatlarni tayyorlash, ularni ko'pchilik idoralardan o'tkazish va hokazo);

- davlat tomonidan qattiq nazorat qilinishi va huquqiy tartibga solinishi;

- bevosita aksiyadorlik jamiyatiga va uning aksiyadorlariga yuklanuvchi sezilarli soliq yuki;

- ochiq aksiyadorlik jamiyati sifatida axborotlarning nisbatan chuqur oshkora qilish majburiyati natijasida faoliyatning tijorat sirlari oshkora bo'lishi, hisob yuritish va hisobot tayyorlashda talablarning yuqoriroq bo'lishi;

- odatda, boshqa shaxslar guruhlarining manfaatlariga zid bo'lgan va ochiq aksiyadorlik jamiyati faoliyatida xususiy manfaatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan turli shaxslar guruhlarining mavjud bo'lishi hamda yollanma menejerlarga ularga qarashli bo'lmagan mulkni boshqarish bo'yicha vakolatlarning berilishi.

Ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlarining farqli jihatlari¹

1-jadval

belgilar	Ochiq jamiyatlar	Yopiq jamiyatlar
Aksiyadorlar soni bo'yicha	Cheklanmagan	3 shaxsdan kam, 50 dan ko'p emas.
Ustav fondi hajmi bo'yicha	Davlat ro'yxatidan o'tish sanasida qiymati 400.000 AQSH dollariga	Davlat ro'yxatidan o'tish sanasida qiymati 400.000 AQSH dollariga

¹ Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qüish to'g'risidagi qonun. 26.04.1996-y

	ekvivalent bo'lgan hajmdan kam bo'lmisligi kerak.	ekvivalent bo'lgan hajmdan kam bo'lmisligi kerak.
Aksiyalarni joylashtirish bo'yicha	Aksiyaga ochiq obuna va ularning ert in sotilishi.Jamiyat ustavida hamda qonunchilikda man qilingan hollardan tashqari hollarda yopiq obunaga ruxsat beriladi.	Yopiq obuna.Atsiyalar faqat ta'sischilar yoki oldindan ma'lum bo'lgan boshqa shaxslar orasida joylashtirilishi mumkin.Chiqariladigan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishi mumkin emas.
Aksiyalami sotishdagi cheklovlar	Chekdanmagan: aksiyadorlar yoki jamiyat tomonidan rozilik talab qilinmaydi.	Boshqa aksiyadorlar agar ustavda nazarda tutilgan bo'lsa, jamiyat aksiya sotib olishda ustunlik huquqiga ega.
Axborotning oshkor qilinishi bo'yicha	Qonunchilikda o'rnatilgan masalalar bo'yicha axborotni oshkor qilishga majbur.	Qonunda axborot osfikor qilinishi bo'yicha hech qanday talab mavjud emas.

1.6. Korporativ boshqaruvning turli shakllardagi sub'ektlarga ta'siri

Korporativ boshqaruvning globallashuvi va xalqarolashuvi sharoitida biznesni rivojlantirish muvaffaqiyati bevosita kompaniyaning obro'siga bog'liq. Ayrim xorijiy ekspertlarning fikriga ko'ra, iqtisodiy rivojlangan bozorlarda obro'-e'tiborning narxi kompaniya aksiyalari narxining 8-15% ga yetishi mumkin². Shu bilan birga, chet ellik respondentlarning fikriga ko'ra, obro'ga oid risklar kompaniya aksiyalari qiymatiga ta'sir qiluvchi uchinchi muhim omil hisoblanadi³.

Kompaniyaning korporativ boshqaruvining holati uning obro'siga ta'sir qiladimi va agar shunday bo'lsa, qay darajada va nima uchun? Bu ikki hodisa o'rtasidagi munosabat turlicha baholanadi.

Shunday qilib, Rossiyada korporativ boshqaruv, ba'zan ichki hamkorlar bilan munosabatlarda axloq tushunchasi bilan toraytirilgan, obro'ga ta'sir qiluvchi boshqa omillar bilan solishtirganda, eng muhim emas (10 tadan 6,93; tashqi sheriklar bilan munosabatlar - 7,28; boshqaruv samaradorligi - 7 .29; top-menejerlarning obro'si -7.30 va boshqalar ³). Shu bilan birga, xorijda korporativ boshqaruvni ko'pchilik obro'ni saqlash va himoya qilishning

² Implications for corporate reputation / Corporate Social Responsibility. – Mode of access: <http://www.article13.com/>.

³ Репутация: как это делается в России : результаты исследования // Эксперт. – 2003. – №38 (393).– 13 окт.– Режим доступа: <http://old.expert.ru/expert/ratings/reput/03-38-93/rating13.htm>.

asosiy vositalaridan biri deb biladi ⁴.

Ehtimol, korporativ boshqaruv va obro' o'rtasidagi munosabatlarning bu nuqtai nafari Rossiya uchun mahalliy tadbirkorlarning o'z tadbirkorlaridan farqli o'laroq, shundayligi bilan izohlanadi.

Xorijiy hamkasblar muvaffaqiyatli biznes uchun korporativ boshqaruv tushunchasi va ahamiyatini, shu jumladan, uning obro'-e'tiborli komponentini hali yetarlicha tushunib yetmagan. Rossiyaning deyarli har o'ninchi kompaniyasi korporativ boshqaruvni o'z ishini tashkil etishni takomillashtirishning ustuvor chorasi deb hisoblamaydi; kompaniyalarning 18 foizi korporativ boshqaruvni takomillashtirishni vazifa deb hisoblaydi, lekin umuman emas. Boshqa masalalarni hal qilishdan muhimroqdir. Biroq, so'rovda qatnashgan kompaniyalarning qariyb yarmi o'zlari uchun muhimligini tan olishlari quvonarli (garchi ko'p hollarda bunday bo'lmasa ham) ustuvorlik korporativ boshqaruv ⁵.

Chet elda korporativ boshqaruvga boshqacha qarash. Kompaniya hal qilishi kerak bo'lgan asosiy vazifalar orasida respondentlarning 14 foizi korporativ boshqaruvni eng ustuvor yo'nalish, 32 foizi uchta ustuvor yo'nalishdan biri, 29 foizi kompaniyaning o'nta ustuvor yo'nalishidan ⁶ tasini qayd etgan.

Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy investorlar Rossiya kompaniyasining investitsion jozibadorligini baholashda uning korporativ boshqaruvi holatiga katta e'tibor berishadi ⁷.

Rossiyada va Sharqiy Evropaning boshqa mamlakatlarida joylashgan kompaniyalarni baholash uchun respondentlarning 40 foizi uchun bu "juda muhim", ammo G'arbiy Evropadagi kompaniyalarni baholash uchun atigi 15 foiz ⁸.

McKinsey ma'lumotlariga ko'ra, samarali korporativ boshqaruvga ega Rossiya korxonalari aktsiyalari bo'yicha o'rtacha mukofot 38% ni tashkil qiladi ⁹.

Vaqt o'tishi bilan rossiyalik tadbirkorlar orasida korporativ boshqaruvning ma'nosini qayta ko'rib chiqish sodir bo'lishi mumkin. Ammo bu sodir bo'lishidan oldin, keling, korporativ boshqaruv qaysi omilga ta'sir qiladi va u orqali kompaniya obro'siga ta'sir qiladi,

⁴ Brugger E.A. Corporate Governance and Sustainability : The Concepts and Guiding Principles // Governance for Sustainability : Making Corporate Responsibility Work : Materials Symposium, Zurich, 2002 / The Sustainability forum Zurich. – Mode of access: <http://www.sustainabilityzurich.org/site.asp?nid=1498&lid=0&sid=&bkey=0&dex=1>.

⁵ 5 A Survey of Corporate Governance Practices in Russia's Regions / International Finance Corporation, Russia Corporate Governance Project. – Washington, 2003. – 54 p. – Mode of access: http://www2.ifc.org/rcgp/Documents/IFC_CG_survey_en.pdf.

⁶ Corporate Governance ... – 28 p.

⁷ Klapper L.F., Love I. Corporate Governance, investor protection and performance in emerging markets // Journal of Corporate Finance. – 2004. – Vol. 10, Is. 5. – P. 703-728.

⁸ Global Investor Opinion Survey 2002 : Key findings. – N.Y., 2002. – 14 p.

⁹ Там же. Кроме повышения инвестиционной привлекательности, надлежащее корпоративное управление способствует (согласно исследованию 1500 компаний, проведенному Гарвардской школой бизнеса) увеличению эффективности работы предприятия, прибыльности его деятельности, росту стоимости активов, включая нематериальные. Gompers P.A., Ishii J.L., Metrick A. Corporate Governance and Equity Prices // Quarterly Journal of Economics. – 2003. – Vol. 118, Is. 1. – P. 107-156.

degan savolga javob berishga harakat qilaylik.

1. Korporativ boshqaruv va kompaniya obro'sini bog'lovchi, ularning o'zaro ta'sirini belgilovchi omil - bu ishonch. Gap birinchi navbatda turli kontragentlar (etkazib beruvchilar, iste'molchilar, davlat organlari, jamoatchilik, kompaniya bilan o'zaro aloqada bo'lgan boshqa shaxslar) tomonidan kompaniyaga bo'lgan ishonch haqida bormoqda.

Ko'rinib turibdiki, ishonch obro'ning o'zagidir, degan tezis shubhasizdir. Kompaniyaning ko'rsatilgan kontragentlarining ularning har biri uchun muhim bo'lgan va kompaniya faoliyatiga mos keladigan umidlarni (ehtiyojlarni) qondirishga bo'lgan ishonchi qanchalik baland bo'lsa, kompaniyaning obro'si shunchalik yuqori bo'ladi va shuning uchun kontragentlar shunchalik tezroq ishonadilar. kompaniya o'z qimmatbaho buyumlari bilan ularning qaytib kelishini kutgan holda (ular turli xil kreditlar beradi - aktsiyadorlar fondlari, ishchilar mehnati, tijorat, tovar, bank kreditlari va boshqalar).

Korporativ boshqaruv, shuningdek, kompaniyaning bir xil shaxslar (kreditorlar) bilan o'zaro hamkorligini ta'minlash va ularning ishonchini mustahkamlashga qaratilgan. Gap shundaki, kompaniyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun faqat aktsiyadorlarning hissasi (so'zning keng ma'nosida kreditlar) etarli emas. Axir taqdim etilgan mablag'lar boshqarilishi kerak. Ushbu muammoni hal qilishda turli shaxslar guruhlar (kompaniya kontragentlari) jalb qilingan. Bunga aktsiyadorlarning o'ziga xos ishonchli vakili (agenti) vazifasini bajaradigan boshqaruv va mehnat jamoasi, davlat organlari, mahsulot iste'molchilari va ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda ko'pincha "manfaatdor tomonlar" deb ataladigan boshqa shaxslar kiradi.

Ushbu shaxslarning barchasi kompaniyadan investitsiyalarni rivojlantirish jarayoniga qo'shgan hissalar bilan bog'liq bo'lgan mulkiy manfaatlarini qondirishini kutishadi.¹⁰

Korporativ xulq-atvorning barcha ishtirokchilari o'rtasidagi ishonch, Rossiya Federatsiyasining Qimmatli qog'ozlar bozori bo'yicha Federal komissiyasining¹¹ fikriga ko'ra, kompaniyaning samarali faoliyati va investitsion jozibadorligi uchun asosdir (Rossiya Korporativ Kodeksining 1-bobi). Xulq-atvor). Shuni esda tutingki, ishonchga erishgan holda, kompaniya obro'ga ham loyiqdir, bu o'z navbatida uning faoliyati uchun muhim bo'lgan turli shaxslar (kreditorlar) uchun kompaniyaning jozibadorligini oshiradi.

Agar manfaatdor tomonlar va aktsiyadorlarning umidlari qondirilmasa, ularning kompaniyaning tegishli ehtiyojlarni qondirish qobiliyatiga bo'lgan ishonchi yo'qoladi yoki sezilarli darajada kamayadi. Ishonch yo'q - ijobiy obro' yo'q¹². Salbiy obro'ning tahdidi nima? Shunday qilib, ishchi kuchining aksariyat a'zolari tomonidan ishonchning yo'qolishi, xorijlik mutaxassislarning kuzatishlariga ko'ra, kompaniyaning korporativ boshqaruv tizimidagi jiddiy

¹⁰ Вряд ли кому-либо удастся полностью оправдать ожидания всех и каждого из лиц, напрямую заинтересованных в работе компании. Вместе с тем логика подсказывает, что ориентировать свою деятельность компания должна на большинство соответствующей группы (и по количеству, и по объёму интереса).

¹¹ В настоящее время - Федеральная служба по финансовым рынкам

¹² Fombrun Ch.J. et al. Opportunity Platforms and Safety Nets: Corporate Citizenship and Reputational Risk // Business & Society Review. – 2000. – Vol. 105, Is. 1. – P. 85-107.

muammolardan dalolat beradi. Bunday kompaniya jozibador ish beruvchi sifatida o'z obro'sini yo'qotdi va u malakali xodimlarni jalb qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, ishchi kuchini investitsiyalarni boshqarish jarayoniga hissa qo'shishga (ya'ni yaxshiroq ishlashga) undaydi ¹³. Ammo korporativ boshqaruv qanday qilib bir vaqtning o'zida ishonchga erishadi? kimning manfaatlari ba'zan bir-birini istisno qiladi (va shuning uchun ishonchni mustahkamlash orqali kompaniyaning obro'si ham oshadi)?

2. Darhaqiqat, korporativ boshqaruvning ishonchni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashdagi vazifasi har qanday tashkilot (firma) faoliyati doimo investitsiyalarni rivojlantirish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning turli guruhlarini o'rtasida ob'ektiv ravishda belgilangan manfaatlar to'qnashuvi bilan birga bo'lishi bilan murakkablashadi. (aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar) ¹⁴.

Bir vaqtning o'zida kompaniya uchun muhim bo'lgan barcha shaxslarning umidlarini qanday qondirish mumkin (ularning ishonchini mustahkamlash)? Keling, avvalo ular o'rtasidagi ziddiyatning sabablarini ko'rib chiqaylik.

Birinchidan, yuqorida aytib o'tilganidek, kompaniyaning rivojlanishi aksiyadorlar va manfaatdor tomonlarning hissasiz mumkin emas. Ushbu guruhlarining har biri vijdonan kompaniya faoliyatiga turli hissa qo'shib, uning hayotiyligi va rivojlanishidan manfaatdor: har bir kishi barqaror daromad olishni xohlaydi - ish haqi yoki boshqa mukofotlar shaklida yoki dividendlar, foizlar yoki boshqa ko'rinishda. mulkiy risklar uchun kompensatsiya yoki soliq to'lovlari shaklida va boshqalar. Shuning uchun, bir tomondan, ushbu odamlar guruhining har biri o'z hissalarini qaytarish (to'lash) uchun kompaniya faoliyatidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan, butun kompaniya har biridan badallarni ko'paytirishdan manfaatdor. uning rivojlanishi uchun guruhlar. Ushbu holat kompaniya va ushbu guruhlarining har biri o'rtasidagi doimiy o'zaro ta'sir zarurligini oldindan belgilab beradi.

Ikkinchidan, kompaniya bir nechta odamlar guruhlarini uchun umumiy bo'lgan ehtiyojlarni (manfaatlarini) qondirish manbaidir. Ushbu holat ob'ektiv ravishda tegishli guruhlarining nafaqat kompaniya bilan, balki bir-biri bilan ham o'zaro aloqasi zarurligini aniqlaydi.

Uchinchidan, ishtirokchilar guruhining badallari hajmi, shakli, kompaniya uchun ahamiyati, shuningdek, boshqa shartlar (har bir guruhdan badallarga bo'lgan ehtiyoj saqlanib qolgan holda) bilan farqlanadi. Bu holat guruhlar o'rtasidagi farqni o'z omonatlari bo'yicha daromad olish (ehhtiyojlarni qondirish) xavfi (ehtimolligi) va depozitlardan foydalanishni

¹³ Child J., Rodrigues S.B. Repairing the Breach of Trust in Corporate Governance // An International Review. – 2004. – Vol. 12, Is. 2. – P. 143-152.

¹⁴ Объективно обусловленное состояние скрытого или явного конфликта характерно для акционерных обществ на всех этапах их развития. См., напр., Петражицкий Л.И. Акционерная компания. Акционерные злоупотребления и роль акционерных компаний в народном хозяйстве. По поводу предстоящей реформы акционерного права. – СПб., 1898. – 220 с.; Драгнева Р.О., Саймонс В.Б. Пересмотр корпоративного управления: можно ли с помощью концепции сторон, заинтересованных в результатах деятельности компании, избежать «дикого» капитализма в Восточной Европе? // Цивилистические записки : междуз. сб. науч. тр. – М. ; Екатеринбург, 2002. – Вып. 2. – С. 464-487.

nazorat qilish, resurslarning to'liq yoki bir qismiga ega bo'lish istagi bo'yicha aniqlaydi. Natijada, kompaniya va guruhlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasi va shakli har xil bo'ladi.

Bundan tashqari, hissa qo'shadigan guruhlarining har biri o'z kichik guruhlariga ega. Masalan, bu ko'pchilik va minoritar aktsiyadorlar, rezidentlar va norezidentlar, institutsional va individual investorlar, strategik va spekulyativ va boshqalar. Kichik guruhlar a'zolari umumiy umumiy manfaatlarga ega (masalan, investitsiyalardan daromad olish) va shu ma'noda ular "bir parcha pirog uchun" kurashda boshqa guruhlariga birgalikda qarshilik ko'rsatadilar. Biroq, umumiy ehtiyojni (manfaatni) qondirish usullari va boshqa shart-sharoitlari guruhda boshqacha ko'rinishi mumkin, bu esa guruh ichidagi ziddiyatning mavjudligini oldindan belgilab beradi.

To'rtinchidan, kompaniyaning resurslari cheklanganligi sababli, barcha guruhlarining ehtiyojlarini bir vaqtning o'zida va to'liq qondirish mumkin emas. Shu sababli, guruhlar o'rtasida resurslarga kirish, ularni nazorat qilish va ulardan foydalanish uchun raqobat paydo bo'ladi.

Beshinchidan, kompaniya uchun, shuningdek, depozitlarni (kapitalni) tashkiliy birlashtirishning boshqa shakllari uchun "kamroq sarmoya kiriting - ko'proq oling" tamoyili qo'llaniladi. Biroq, kompaniyaning resurslari cheklangan va ularni ko'paytirish kerak vaqt, ba'zan uzoq. Shuning uchun, ortib borayotgan ehtiyojni qondirish bir vaqtning o'zida (odatda qisqa) faqat boshqa guruh uchun mo'ljallangan "pirog" ning bir qismi hisobiga mumkin.

Shu munosabat bilan, har doim va barcha mamlakatlarda kompaniya shaklida tashkil etilgan kapitalni boshqarish faoliyati turli shaharlarda noto'g'ri foydalanish va firibgarlik bilan birga bo'lgan. Bular kompaniya va uning uchun ahamiyatli bo'lgan turli xil shaxslar guruhlar o'rtasidagi ziddiyatning asosiy ob'ektiv aniqlangan sabablari ¹⁵, ikkinchisining ishonchiga yo'lni qiyinlashtiradigan va natijada kompaniyaning ijobiy obro'siga olib keladigan sabablar.

Endi men ushbu mojaroning rivojlanishi uchun bir nechta rasmlarni keltiraman.

Mehnat jamoasi a'zolari, odatda, uzoq vaqt davomida o'z ishi uchun to'lovni oshirishdan va uning intensivligini kamaytirishdan manfaatdor. Kompaniya rahbariyati, aksincha, ularni saylagan aktsiyadorlar (yoki direktorlar kengashi) o'rtasida ijobiy taassurot qoldirish uchun xarajatlarni, shu jumladan kadrlar xarajatlarini kamaytirishdan manfaatdor. Natijada, mehnat jamoasi a'zolari, masalan, ishning ko'rinishini yaratishi va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali o'z ishini faollashtirishga hissa qo'shmasligi mumkin. Qisqa muddatli moliyaviy natijalarga erishish uchun rahbariyat biznes manfaatlariga zid ravishda malakali va qimmat xodimlarni ishdan bo'shatishi mumkin. Rahbariyat a'zolari o'z lavozimlarini (va shuning uchun ish haqini) saqlab qolishni xohlaydigan ma'lumotlarni buzishi mumkin, ularni ishga qabul qilish to'g'risida qaror qabul qilganlarga taqdim etiladi, ikkinchisi esa o'z vazifalari (maqomi) tufayli kompaniya ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligidan

¹⁵ Шихвердиев А.П. Корпоративный менеджмент : учеб. пособие. – Сыктывкар, 2004. – С.39-46.

manfaatdordir.

Aksiyalarning nazorat paketiga ega bo'lgan aktsiyadorlar kompaniyani ishlab chiqarishni qayta jihozlashdan va ushbu maqsadlar uchun dividendlarni qayta investitsiya qilishdan manfaatdor bo'lishi mumkin. Ammo bunday paketga ega bo'lmagan yoki yagona aktsiyalarga ega bo'lgan aktsiyadorlar dividend olishni afzal ko'radilar. Yana bir misol. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'p hollarda menejment kompaniyani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha mablag'lardan manfaatdor bo'lib, dastlabki bosqichda investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Ammo ma'lum bir nuqtada, masalan, yangi aktsiyadorlarning kompaniya faoliyatiga jalb qilinishi "jamoalarni" almashtirishga, "o'z odamlarimizni" asosiy boshqaruv lavozimlariga joylashtirishga olib kelishi mumkinligi tushuniladi. Ishni yo'qotish uchun. Shu sababli, boshqaruv va nisbatan katta potentsial investorlar o'rtasidagi hamkorlik tezda qarama-qarshilikka yo'l qo'yishi mumkin. Sarmoyasiz, lekin ish bilan.

2-mavzu: Korporativ boshqaruv tizimi mikrodarajada va makrodarajada

Reja:

2.1. Korporativ boshqaruv tizimi mikrodarajadagi ahamiyati

2.2. Korporativ boshqaruv tizimi makrodarajadagi ahamiyati.

2.3. Korporativ boshqaruv tizimi sanoat korxonalaridagi ahamiyati.

2.1. Korporativ boshqaruv tizimi mikrodarajadagi ahamiyati

O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tizimini mikrodarajada takomillashtirish iqtisodning barcha sohalariga ichki investitsiyalarni jalb etishning muhim omili hisoblanadi. Xo'jalik birlashmalarini korporativ boshqarish ularning iqtisodiy ko'rsatkichlariga, faoliyatiga va iqtisodiy o'sishi uchun zarur bo'lgan kapitalni jalb etish qobiliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Korporativ boshqarishning asosiy maqsadi akstiyadorlar manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Respublikamizda korporativ boshqarish tizimining huquqiyasoslari yaratilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Akstiyadorlik jamiyatlari va akstiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi va "Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlari shular jumlasidandir.

Korporastiya nima? Korporastiya bu daromad olish va boshqa manfaatlar asosida huquqiy va jismoniy shaxslarning birlashgan jamoasidir. Bir guruh huquqiy va jismoniy shaxslar o'zlarining mol-mulklarini va pul mablag'larini birlashtirib, yangi (korxona) akstiyadorlik jamiyati (AJ) tashkil etishi mumkin. Yangi AJ tashkil etishdan maqsad - aniq faoliyat turlari bilan shug'ullanib, daromad olish. Korporativ mulk asosida tashkil etilgan yangi akstiyadorlik kompaniyasini boshqarishdan zaruriyati kelib chiqadi. Kompaniyaning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi bevosita boshqarishga bog'liqdir.

Mulkchilikning akstiyadorlik jamiyati shakli rivojlanishi bilan mulk egalarining, ya'ni akstiyadorlarning korporastiyani boshqarish ajralish jarayoni paydo bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, mulk egalarining boshqaruvchilar ustidan nazorat o'rnatish muammosini keltirib chiqaradi. Nazorat o'rnatishdan maqsad ularning boshqaruvidagi mulkdan mulkdorlarning manfaatlarini ko'zlagan holda maksimal darajada samarali foydalanishdir.

Korporativ munosabatlarning asosiy qatnashchilari korporastiyaga egalik qiluvchi (akstiyador) va uning menejerlaridir. Bu qatnashchilarning birinchi o'z sarmoyalarini investitsiya qilganligi tufayli kompaniyaga qulay sharoit yaratib berish bilan birgalikda korporativ munosabatlarning boshqa qatnashchilariga nisbatan ancha yuqori xavf-xatarni o'z zimmalariga oladi. Investitsiya qilgan sarmoyadan foydalanish darajasi bevosita menejerlarning faoliyatiga bog'liq. Bundan tashqari, korporativ munosabatlarning korporativ boshqarishdagi faol qatnashchilari kompaniya faoliyatidan manfaatdor bo'lgan boshqa guruhlar

(kompaniya xodimlari, kreditorlar, mahalliy hokimiyat va boshqalar). Korporativ boshqarish jarayonida real qatnashish darajasi tarixan shakllangan bozor munosabatlariga, davlatning iqtisodiy siyosatiga, moliyaviy institutlarning (munosabatlariga) faoliyatiga, jalb etilish shakllariga, qonunchilik me'yorlariga va boshqa omillarga bog'liq.

Korporativ boshqarishda qatnashayotgan turli xildagi guruhlarining o'zaro munosabatlari bir qator omillar va holatlarga bog'liq. Akstiyadorlik kapitali (sarmoyasi)ning tarixan shakllangan tarkibiga u yoki boshqa guruh investorlar va menejerlar egalik qilayotgan akstiyalar paketi miqdoriga, akstiyalarni sotib olish shartlariga, mulkdorlarning tiplariga va kompaniyaga nisbatan manfaatlarining xususiyatlariga hamda boshqa omillariga bog'liq bo'ladi.

2.2.Korporativ boshqaruv tizimi makrodarajadagi ahamiyati.

Mazkur paragrafda chet elda davlat mulki va xususiy mulkni boshqarish bo'yicha korporativ tajribasini ko'rib chiqamiz. Makrodarajada davlat mulkini boshqarish xususiyatiga ko'ra Yaponiya, Amerika va G'arbiy Evropa modellarini ajratish mumkin.

Yaponiyada davlat korxonalari uchta asosiy xilga bo'linadi: hukumat yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi ma'lum bir idoraga qarashli va ushbu idora boshlig'i tomonidan boshqariladigan idoraviy korxonalar; jamoat korporastiyalari - hukumat yoki mahalliy organlar mablag'lari hisobidan tashkil etilgan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar, ularni boshqarish yollanma menejerlar tomonidan amalga oshiriladi; akstiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan shirkat shaklida tashkil etilgan, davlatga faqat uning akstiyadorlik sarmoyasidagi ulushiga mos ravishda qisman tegishli bo'lgan aralash korxonalar.

Idoraviy korxonalar markaziy hukumatning departamentlari yoki bo'limlariga tegishli bo'lib, ular maxsus byudjat hisob raqamlari -Yaponiyada tarixan yuzaga kelgan davlat korxonalari operastiyalarini moliyalash tizimi asosida faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat byudjetining asosiy hisobraqamiga qo'shimcha sifatida ishtirok etishadi, uning funkstiyasi davlat apparatini moliyalashdan iborat.

Jamoat korporastiyalari va aralash kompaniyalar Yaponiyada "alohida yuridik shaxs" tushunchasi bilan birlashtiriladi. Ularning soni jami 99 ta bo'lib, shundan 3 tasi davlat kompaniyalari, 13 tasi davlat korporastiyalari, 19 tasi ijroiya korporastiyalari, 9 tasi davlat moliyaviy korporastiyalari, 4 tasi bank, 1 tasi savdo korporastiyasi, 10 tasi alohida kompaniya, 42 tasi - boshqa "alohida yuridik shaxslar". Bundan tashqari, "sankstiyalangan yuridik shaxslar" - hukumatning ko'magi bilan idoralar tomonidan tashkil etilgan, lekin o'z xususiyatiga ko'ra xususiy mustaqil korporastiya hisoblangan korxonalar ham mavjud.

Bunda hukumat idoralari ushbu korporastiyalarda qarorlar qabul qilish jarayoniga aralashish huquqiga ega. Bevosita davlat mulkining predmeti bo'lmagan bunday korxonalar o'z mavqega ko'ra to'g'ridan-to'g'ri tartibga

solish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korporastiyalarga juda yaqin. Bundan tashqari, Yaponiyada 39 ta sof davlat korporastiyalari, 17 ta aralash va 1 ta alohida turdagi korporastiya mavjud, u faqat ustaviga ko'ra "alohida yuridik shaxs" bo'lib qolgan. Yaponiyada davlat korxonalari jamoat nazoratining ob'ekti hisoblanadi. Idoraviy korxonalar faoliyatini parlament nazorat qiladi. Byudjetlar, rejalar va moliyaviy hisobotlarni nazorat qilish va tasdiqlashda, parlamentdan tashqari, Moliya vazirligi ham ishtirok etadi. Tovarlar va xizmatlar narxining o'zgarishiga faqat Iqtisodiy rejalashtirish boshqarmasining roziligi bilan yo'l qo'yiladi; Moliyaviy-taftish palatasi va bosh vazir devonxonasi huzuridagi umumiy ishlarni boshqarish Ma'muriy-inspektsiya departamenti idoraviy korxonalarning joriy faoliyatini nazorat qiladi. Jamoat korporastiyalari ham hukumat va tegishli vazirliklar tomonidan nazorat qilinadi. Biroq farqi shundan iboratki, ma'muriy tartibga solish sohasida bu erda idoraviy korxonalarnikiga qaraganda kam, menejerlar esa qarorlar qabul qilishda mustaqillikka ega. Sobiq davlat kompaniyalari - "Kokutestu", "Sambay", Yaponiya rivojlanish banki, Eksport-import banki, davlat moliyaviy korporastiyalari bundan mustasno.

2.3. Korporativ boshqaruv tizimi sanoat korxonalaridagi ahamiyati.

Mazkur paragrafda chet elda davlat mulki va xususiy mulkni boshqarish bo'yicha korporativ tajribasini ko'rib chiqamiz. Makrodarajada davlat mulkini boshqarish xususiyatiga ko'ra Yaponiya, Amerika va G'arbiy Evropa modellarini ajratish mumkin.

Yaponiyada davlat korxonalari uchta asosiy xilga bo'linadi: hukumat yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlaridagi ma'lum bir idoraga qarashli va ushbu idora boshlig'i tomonidan boshqariladigan idoraviy korxonalar; jamoat korporastiyalari - hukumat yoki mahalliy organlar mablag'lari hisobidan tashkil etilgan va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxonalar, ularni boshqarish yollanma menejerlar tomonidan amalga oshiriladi; akstiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan shirkat shaklida tashkil etilgan, davlatga faqat uning akstiyadorlik sarmoyasidagi ulushiga mos ravishda qisman tegishli bo'lgan aralash korxonalar.

Idoraviy korxonalar markaziy hukumatning departamentlari yoki bo'limlariga tegishli bo'lib, ular maxsus byudjat hisob raqamlari -Yaponiyada tarixan yuzaga kelgan davlat korxonalari operastiyalarini moliyalash tizimi asosida faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat byudjetining asosiy hisobraqamiga qo'shimcha sifatida ishtirok etishadi, uning funkstiyasi davlat apparatini moliyalashdan iborat.

Jamoat korporastiyalari va aralash kompaniyalar Yaponiyada "alohida yuridik shaxs" tushunchasi bilan birlashtiriladi. Ularning soni jami 99 ta bo'lib, shundan 3 tasi davlat kompaniyalari, 13 tasi davlat korporastiyalari, 19 tasi ijroiya korporastiyalari, 9 tasi davlat moliyaviy korporastiyalari, 4 tasi bank, 1 tasi savdo korporastiyasi, 10 tasi alohida kompaniya, 42 tasi - boshqa "alohida

yuridik shaxslar". Bundan tashqari, "sankstiyalangan yuridik shaxslar" - hukumatning ko'magi bilan idoralar tomonidan tashkil etilgan, lekin o'z xususiyatiga ko'ra xususiy mustaqil korporatiya hisoblangan korxonalar ham mavjud. Bunda hukumat idoralari ushbu korporastiyalarda qarorlar qabul qilish jarayoniga aralashish huquqiga ega. Bevosita davlat mulkining predmeti bo'lmagan bunday korxonalar o'z mavqega ko'ra to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish sohasida faoliyat ko'rsatuvchi korporastiyalarga juda yaqin. Bundan tashqari, Yaponiyada 39 ta sof davlat korporastiyalari, 17 ta aralash va 1 ta alohida turdagi korporatiya mavjud, u faqat ustaviga ko'ra "alohida yuridik shaxs" bo'lib qolgan. Yaponiyada davlat korxonalari jamoat nazoratining ob'ekti hisoblanadi. Idoraviy korxonalar faoliyatini parlament nazorat qiladi. Byudjetlar, rejalar va moliyaviy hisobotlarni nazorat qilish va tasdiqlashda, parlamentdan tashqari, Moliya vazirligi ham ishtirok etadi.

3- mavzu: Akstiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi

Reja:

3.1. Akstiyadorlik jamiyatining huquqiy holati

3.2. Jamiyatni tashkil etish usullari

3.3. Jamiyatning ustav fondi Jamiyatning akstiyalari

3.1. Akstiyadorlik jamiyatining huquqiy holati

Ustav fondi (ustav kapitali) akstiyadorlarning akstiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi akstiyalargataqsimlangan tijorat tashkiloti akstiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda jamiyat deb yuritiladi) deb e'tirof etiladi.

Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat, agar uning ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, cheklanmagan muddatga tuziladi.

Jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

Jamiyat o'zining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan to'liq firma nomiga ega bo'ladi va qisqartirilgan firma nomiga ega bo'lishi mumkin.

Jamiyat o'zining firma nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan eri ko'rsatilgan yumaloq muhrga ega bo'lishi lozim. Muhrda bir vaqtning o'zida firmaning nomi boshqa istalgan tilda ham ko'rsatilishi mumkin.

Jamiyat o'zining nomi yozilgan shtamp va blankalarga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va

xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'lishga haqli.

Jamiyatning joylashgan eri, agar jamiyat ustavida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, u davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyga ko'ra belgilanadi.

Jamiyat u bilan aloqa amalga oshiriladigan pochta manziliga va elektron pochta manziliga ega bo'lishi lozim. Jamiyat o'zining joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o'zgarganligi to'g'risida yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarni (bundan buyon matnda ro'yxatdan o'tkazuvchi organ deb yuritiladi) yozma bildirish yuborish yo'li bilan, akstiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yo'li bilan xabardor etishi shart.

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Akstiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarining o'rnini o'zlariga tegishli akstiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

Akstiyalarning haqini to'liq to'lamagan akstiyadorlar jamiyatning majburiyatlari yuzasidan o'zlariga tegishli akstiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

Jamiyat o'z akstiyadorlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

3.2. Jamiyatni tashkil etish usullari

Jamiyat yuridik shaxsni ta'sis etish yoki qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) yo'li bilan tashkil etilishi mumkin.

Jamiyatni ta'sis etish yo'li bilan tashkil etish muassislarning (muassisning) qaroriga ko'ra amalga oshiriladi. Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror ta'sis yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Jamiyat bir muassis tomonidan ta'sis etilgan taqdirda jamiyatni ta'sis etish haqidagi qaror shu muassis tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi.

Jamiyatning muassislari uni tashkil etish to'g'risida o'zaro ta'sis shartnomasini tuzadilar, shartnomada ularning jamiyatni ta'sis etishga doir birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish tartibi, jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori, muassislar o'rtasida joylashtirilishi lozim bo'lgan akstiyalarning turlari, ular uchun to'lanadigan haqning miqdori va uni to'lash tartibi, muassislarning jamiyatni tashkil etishga doir huquq va majburiyatlari belgilanadi.

Jamiyatni ta'sis etish to'g'risidagi qaror muassislarning ovoz berish natijalarini hamda jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash, jamiyatning boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari yuzasidan muassislar qabul qilgan qarorlarni aks ettirishi kerak.

Jamiyatni ta'sis etish, uning ustavini tasdiqlash to'g'risidagi va muassis tomonidan jamiyatning akstiyalari haqini to'lash uchun kiritilayotgan qimmatli

qog'ozlarning, o'zga mulkiy huquqlarning yoki pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan boshqa huquqlarning pulda ifodalangan bahosini tasdiqlash haqidagi qarorlar muassislari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushi kamida 15 foizni tashkil etishi lozim bo'lgan chet ellik investorlar ishtirokida tashkil qilinadi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Chet ellik investorlar ishtirokidagi jamiyatni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat tashkiloti akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda akstiyadorlik jamiyatini ta'sis etish to'g'risidagi qaror davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadi.

Jamiyat muassislari va akstiyadorlarining soni cheklanmaydi.

Jamiyatni tashkil etish to'g'risidagi ta'sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar jamiyatning muassislari (muassisi) deb e'tirof etiladi.

Agar qonunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, davlat organlari jamiyatning muassislari (akstiyadorlari) bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat muassislari jamiyatning tashkil etilishi bilan bog'liq majburiyatlar yuzasidan jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilguniga qadar solidar javobgar bo'ladi. Jamiyat muassislarning jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq majburiyatlari yuzasidan muassislarning harakatlari keyinchalik akstiyadorlarning umumiy yig'ilishida ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Davlat tashkiloti akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirilayotganda davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ jamiyatning muassisi bo'ladi.

Jamiyat muassislari o'rtasida akstiyalarni taqsimlash ta'sis hujjatigamuvofiq amalga oshiriladi.

Ta'sis yig'ilishi:

jamiyatni ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qiladi va uning ustavini tasdiqlaydi;

ta'sis etish jarayonida muassislari tomonidan tuzilgan shartnomalarni tasdiqlaydi;

muassislari tomonidan akstiyalar haqini to'lash tartibini belgilaydi;

chiqariladigan akstiyalarning turlarini va sonini belgilaydi;

jamiyatning kuzatuv kengashini, taftish komissiyasini (taftishchisini) saylaydi;

jamiyatning ijroiya organini tuzadi (saylaydi, tayinlaydi).

Ta'sis yig'ilishida ovoz berish muassislari kiritadigan ulushlarga muvofiq o'tkaziladi.

Ta'sis yig'ilishi qarorlarni oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qiladi, bundan ta'sis shartnomasini o'zgartirish to'g'risidagi qarorlar qabul qilinadigan hollar mustasno bo'lib, buning uchun barcha muassislarning roziligi talab etiladi.

Ta'sis yig'ilishining qarorlari jamiyatning barcha muassislari tomonidan imzolanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Davlat tashkilotini akstiyadorlik jamiyati etib o'zgartirish davlat mulkini tasarruf etishga vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan qaror asosida ta'sis yig'ilishini o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Bir muassisdan iborat bo'lgan jamiyatda ta'sis yig'ilishi o'tkazilmaydi.

Ustav jamiyatning ta'sis hujjati bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

jamiyatning to'liq (agar bo'lsa qisqartirilgan) firma nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;

faoliyatining sohasi (asosiy yo'nalishlari) va maqsadi;

ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori;

jamiyat akstiyalarining soni, nominal qiymati, turlari (oddiy, imtiyozli);

jamiyat boshqaruvining tuzilmasi, jamiyat kuzatuv kengashining, taftish komissiyasining va ijroiya organining a'zolari soni, bu organlarni shakllantirish tartibi, ularning vakolatlari.

Jamiyat ustavida jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) bitta akstiyadorga tegishli bo'lgan ulushning eng ko'p miqdoriga cheklovlar belgilanishi mumkin.

3.3. Jamiyatning ustav fondi Jamiyatning akstiyalari

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) va akstiyalari

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) akstiyadorlar olgan jamiyat akstiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha akstiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi kerak.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) jamiyat mol-mulkinging jamiyat kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan eng kam miqdorini belgilaydi.

Jamiyat davlat mulki negizida tashkil etilayotganda tashkilotning (mol-mulkning) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlangan bozor qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) summasini tashkil etadi.

Jamiyat oddiy akstiyalarni joylashtirishi shart, shuningdek imtiyozli akstiyalarni joylashtirishga haqli. Joylashtirilgan imtiyozli akstiyalarning nominal qiymati jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) yigirma foizidan oshmasligi kerak.

Jamiyat ta'sis etilayotganda uning barcha akstiyalari jamiyat muassislari o'rtasida joylashtiriladi.

Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha to'rt yuz ming AQSh dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak.

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) jamiyat ustavida nazarda tutilgan miqdorda shakllantirishning eng ko'p muddati jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran bir yildan oshmasligi lozim.

Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) qo'shimcha akstiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Qo'shimcha akstiyalar faqat jamiyat ustavida belgilangan, e'lon qilingan akstiyalarning soni doirasida jamiyat tomonidan joylashtirilishi mumkin.

4-mavzu: Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruv tizimi

Reja

4.1. Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning huquqiy holati

4.2. Mas'uliyati jamiyatni ta'sis etish tartibi

4.3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) tarkibi.

4.1. Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarning huquqiy holati

Mas'uliyati cheklangan jamiyat Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlarda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat- Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorlardagi ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat deb hisoblanadi. Bunday jamiyatning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulkilari bilan hamma uchun bir xil bo'lgan va qo'shgan hissalar qiymatiga nisbatan jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilanadigan karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat (bundan buyon matnda jamiyat deb yuritiladi) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi bo'lishga yoki ularning ustav fondida (ustav kapitalida) boshqacha tarzda ishtirok etishga, vakolatxonalar va filiallar tuzishga haqlidir.

Jamiyat, agar uning ta'sis hujjatlarida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lmagan jamiyat to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va jamiyatning joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Jamiyatning muhrida uning firma nomi jamiyatning ixtiyoriga binoan boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalarga ega bo'lishga haqli. Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan jamiyat muhrga ega bo'lishga haqli.

Jamiyat o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol- mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Jamiyat qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday faoliyat turlarini amalga oshirishi mumkin. Ro'yxati qonunlarda belgilanadigan ayrim faoliyat turlari bilan jamiyat faqat listenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Jamiyat o'z majburiyatlari yuzasidan o'ziga qarashli barcha mol-mulk bilan javobgar bo'ladi.

Jamiyat o'z ishtirokchilarining majburiyatlari yuzasidan javob bermaydi.

Jamiyatning bankrotligi ishtirokchi sifatidagi shaxsning aybi tufayli vujudga kelgan bo'lsa, jamiyatning mol-mulki etarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Davlat va uning organlari jamiyatning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi, xuddi shuningdek jamiyat ham davlat va uning organlari majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

4.2. Mas'uliyati jamiyatni ta'sis etish tartibi

Jamiyatni ta'sis etish tartibi -jamiyatning muassislari ta'sis shartnomasini tuzadilar va jamiyat ustavini tasdiqlaydilar, Jamiyat muassislari jamiyatning ijro etuvchi organlarini saylaydilar (tayinlaydilar), shuningdek jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) pulsiz hissalar qo'shilgan taqdirda, ularning pul bahosini tasdiqlaydilar. Jamiyat ustavini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, shuningdek jamiyat muassislari kiritadigan hissalarining pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qaror muassislar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi. Boshqa qarorlar jamiyatning muassislari tomonidan Qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qabul qilinadi.

Jamiyatning muassislari jamiyatni ta'sis etish bilan bog'liq va uni davlat ro'yxatidan o'tkazishga qadar yuzaga kelgan majburiyatlar yuzasidan solidar javobgar bo'ladilar. Jamiyat muassislarning uni ta'sis etish bilan bog'liq

majburiyatlari yuzasidan, ularning harakatlari keyinchalik jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan ma'qullangan taqdirdagina javobgar bo'ladi.

Jamiyatning ta'sis hujjatlari- jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi jamiyat ta'sis hujjatlari deb hisoblanadi.

Agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav jamiyatning ta'sis hujjati hisoblanadi. Jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerak.

Jamiyat ishtirokchisining, auditorning yoki istalgan manfaatdor shaxsning talabiga binoan jamiyat ularga jamiyatning ta'sis hujjatlari bilan, shu jumladan unga kiritilgan o'zgartishlar bilan tanishish imkoniyatini berishi shart. Jamiyat ishtirokchisining talabiga binoan jamiyat unga jamiyatning ta'sis shartnomasi va ustavi nusxalarini berishi shart. Nusxalarni berganlik uchun jamiyat tomonidan olinadigan haq ularni tayyorlashga ketgan xarajatlardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan kiritiladi. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi. Vakolatxonalar va filiallar tashkil etilishi, shuningdek jamiyatning pochta manzili o'zgarishi bilan bog'liq o'zgartishlar kiritilgan hollarda, bunday o'zgartishlar yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi.

Ta'sis shartnomasi qoidalari bilan jamiyat ustavi qoidalari mos kelmagan hollarda jamiyat ustavi qoidalari uchinchi shaxslar va jamiyat ishtirokchilari uchun ustuvor kuchga ega bo'ladi.

Jamiyatning ta'sis shartnomasi- ta'sis shartnomasida jamiyatning muassislari jamiyatni tuzish majburiyatini oladilar va uni tuzish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini belgilaydilar.

4.3. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) tarkibi.

Jamiyat ustav fondi (ustav kapitali) uning ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatlaridan tarkib topadi.

Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) miqdori jamiyatni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hujjatlarni taqdim etish sanasidagi holatga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining qirq baravaridan kam bo'lmasligi lozim.

Jamiyat ishtirokchisining jamiyat ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushining miqdori foizlarda yoki kasr ko'rinishida belgilanadi. Jamiyat ishtirokchisi ulushining miqdori uning ulushi nominal qiymati bilan jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) nisbatiga teng bo'lishi kerak.

Jamiyat ishtirokchisi ulushining haqiqiy qiymati jamiyat sof aktivlari qiymatining uning ulushi miqdoriga mutanosib bo'lgan bir qismiga mos bo'ladi.

Jamiyatning ustavi bilan jamiyat ishtirokchisi ulushining eng yuqori miqdori, shuningdek jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nisbatini o'zgartirish imkoniyati cheklab qo'yilishi mumkin. Bunday cheklashlar jamiyatning ayrim ishtirokchilariga nisbatan belgilanishi mumkin emas. Ko'rsatib o'tilgan qoidalar jamiyat ta'sis etilayotganda uning ustavida nazarda tutilishi, shuningdek jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyat barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qaroriga binoan jamiyatning ustaviga kiritilishi, o'zgartirilishi va undan chiqarib tashlanishi mumkin.

Jamiyat faqat kredit tashkiloti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan paytga qadar uning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) o'z hissasining kamida o'ttiz foizini kiritishi shart.

Jamiyatning har bir ishtirokchisi ta'sis hujjatlarida belgilangan va jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab bir yildan oshmaydigan muddat mobaynida jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) o'z hissasini to'liq kiritishi kerak.

Jamiyatning ishtirokchisi tomonidan hissaning to'liq kiritilganligi jamiyat ishtirokchisiga beriladigan guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Jamiyat ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashyolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

Jamiyatning ishtirokchilari va jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shiladigan pulsiz hissalarining pul bahosi jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining jamiyatning barcha ishtirokchilari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi.

Ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkning muddat o'tgunga qadar ushbu mol-mulkdan foydalanish huquqi tugatilgan taqdirda, jamiyatning mol-mulkni bergan ishtirokchisi jamiyatning talabiga binoan unga shunday mol-mulkdan shunga o'xshash sharoitlarda qolgan muddat mobaynida foydalanganlik uchun to'lanadigan haqiga teng pul to'lovini to'lashi shart. Pul to'lovini jamiyat tomonidan uni berish talabnomasi taqdim etilganidan e'tiboran agar jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qarori bilan to'lov to'lashning boshqacha tartibi belgilangan bo'lmasa, bir oy ichida bir yo'la to'lanishi kerak. Bunday qaror jamiyatning ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida mol-mulkdan foydalanish huquqini bergan va bu huquq muddatidan ilgari tugatilgan jamiyat ishtirokchisining ovozini hisobga olmagan holda jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Ta'sis hujjatlarida jamiyat ishtirokchisi tomonidan ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida jamiyatga foydalanish uchun berilgan mol-mulkdan foydalanish huquqining muddatidan ilgari tugatilganligi uchun jamiyat ishtirokchisi tomonidan tovon to'lashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

5 mavzu: Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi

REJA:

5.1. Xo'jalik shirkat va to'liq shirkat tushunchasining mohiyati

5.2. Kommandit shirkati boshqaruvi va unda ishlarni yuritish

5.3. Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi asoslari.

5.1. Xo'jalik shirkat va to'liq shirkat tushunchasining mohiyati Xo'jalik shirkati - muassislarning (ishtirokchilarning) ulushlariga (hissalariga) bo'lingan ustav fondiga (ustav kapitaliga) ega bo'lgan tijorat tashkiloti xo'jalik shirkati hisoblanadi, bunday shirkatda muassislar (ishtirokchilar) yoki ulardan ayrimlari shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati yuritishda shaxsan ishtirok etadilar.

Xo'jalik shirkati to'liq shirkat yoki kommandit shirkat shaklida tuziladi.

Xo'jalik shirkati, agar uning ta'sis shartnomasida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, nomuayyan muddatga tuziladi.

Xo'jalik shirkati o'zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkiga ega bo'ladi, o'z nomidan huquqlarni olishi, majburiyatlarga ega bo'lishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday turdagi faoliyatni amalga oshirishi mumkin.

Qonunlarda belgilanadigan faoliyatning ayrim turlari bilan xo'jalik shirkati faqat listenziya asosida shug'ullanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqa yuridik shaxslarning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishi, vakolatxonalar va filiallar tashkil etishi mumkin.

Xo'jalik shirkati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yuridik shaxs sifatida tuzilgan deb hisoblanadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lmagan xo'jalik shirkati to'liq firma nomi davlat tilida ifodalangan va xo'jalik shirkatining joylashgan manzili ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega bo'lishi kerak. Xo'jalik shirkatining muhrida uning firma nomi xo'jalik shirkatining ixtiyoriga ko'ra boshqa tillarda ham ifodalanishi mumkin.

Xo'jalik shirkati o'zining firma nomi yozilgan shtamplariga va blankalariga, o'z emblemasiga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan

o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarini, tovarlar, ishlar va xizmatlarni individuallashtiruvchi o'zga vositalarga ega bo'lishga haqli. Kichik tadbirkorlik sub'ekti bo'lgan xo'jalik shirkati muhrgaega bo'lishga haqli.

To'liq shirkat tushunchasi- ishtirokchilari (to'liq sheriklari) o'z o'rtalarida tuzilgan shartnomaga muvofiq shirkat nomidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan hamda uning majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradigan shirkat to'liq shirkat deb hisoblanadi.

Shaxs faqat bitta to'liq shirkatning ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

To'liq shirkatning (bundan buyon matnda shirkat deb yuritiladi) firma nomi yo uning barcha ishtirokchilari nomini (nomlanishini), shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni yoxud bir yoki bir necha ishtirokchining «vakompaniya» degan so'zlar qo'shilgan nomini (nomlanishini), shuningdek «to'liq shirkat» degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak.

5.2. Kommandit shirkati boshqaruvi va unda ishlarni yuritish

- Kompaniya faoliyati doirasi va direktorlar kengashi diqqatiga tegishli ma'lumotlarni muloqot kuni Rossiya Federatsiyasi amalga oshirilayotganiqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari tahlil;

- Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha tasdiqlangan rejalar bajarilishini nazorat qilishda ishtirok etish;

- Kompaniyaning investorlar va aktsiyadorlar bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini baholash.

Qo'mita Direktorlar Kengashiga quyidagi vakolatlarga yordam beradi:

Kompaniyaning strategik maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash;


Kompaniyaning uzoq muddatda ishlashini baholash;

strategik va biznesni rejalashtirishni ta'minlash;

Kompaniyalar guruhlariga nisbatan Kompaniya siyosatini belgilash;

korporativ tuzilishi jihatidan kompaniyasi Ustavida belgilangan vakolatlari doirasida.

Qo'mita direktorlar kengashi maslahat organi hisoblanadi va shuningdek direktorlar kengashi tomonidan qo'mitasi vakil masalalar bo'yicha, chuqurligi masalalar ekspertiza va uning vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Direktorlar Kengashiga tavsiyalar tayyorlash uchun tashkil etilgan. Qo'mita asosiy vazifasi Kompaniya strategik rivojlanish nazoratini amalga oshirishda orqali aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, ularni ta'minlash uchun direktorlarkengashi yordam berish.



1- rasm. Korporativ boshqaruv tizimida direktorlar kengashining strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitasi¹⁶

15.4. Strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitaning vazifa va funksiyalari

Qo'mitaning vazifalari quyidagilardan iborat:

Kompaniya faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilashga ishtirok strategik tashabbuslar, kompaniyaning yuqori rahbar baholash loyihalashtirish va biznes Kompaniya liniyalari orqali Kompaniyaning strategiyasi va aniq strategiyalarini amalga oshirilishini nazorat qilish;

strategik rivojlanish uchun Kompaniyaning tarkibiy bo'linmasi bilan muntazam aloqada bo'lish;

Biznes chiziqlar (asoslangan kompaniyasi va kompaniyasi shaxsiy strategiyalarni strategiyasini shakllantirish uchun takliflar dastlabki ko'rib chiqish, inson, tashkiliy, investitsiya, moliyaviy (dividend siyosati, sarmoya va qarz kapitali tuzilishi, kompaniyaning qimmatli qog'ozlar), texnologik, axborot strategiyasi, ekologiya va muhofazasi sohasidagi strategiyasi bilan operatsiyalar atrof-muhit va Kompaniyaning boshqa funktsional strategiyalari);

Kompaniyaning strategiyasini amalga oshirish bo'yicha axborotni (hisobotlarni) oldindan ko'rib chiqish.

¹⁶ Korporativ boshqaruv tizimida direktorlar kengashining strategic rejalashtirish bo'yicha qo'mitasi

Boshqaruv Kengashi e'tiboriga tegishli ma'lumotlarni taqdim etish. Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha tasdiqlangan rejalarni amalga oshirishni nazorat qilishda qatnashish. Kompaniyaning investorlar va aktsiyadorlar bilan o'zaro hamkorligi samaradorligini baholash.

15.5.Strategik rejalashtirish bo'yicha qo'mitaning kompetntsiyasi va vakolatlari

Qo'mitaning vakolatlari Kompaniyaning Direktorlar kengashiga o'z vakolati doirasidagi quyidagi masalalar bo'yicha dastlabki ko'rib chiqish va tavsiyalar tayyorlashni o'z ichiga oladi:

faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash;

Kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini va uni amalga oshirishni nazorat qilishni tasdiqlash;

Kompaniyaning moliyaviy-xo'jalik faoliyati rejalarini (biznes-rejalar, byudjetlar) tasdiqlash va ularni amalga oshirishni nazorat qilish;

Kompaniyaning aktsiyalari va (yoki) Kompaniyaning aktsiyalariga aylanishi mumkin bo'lgan qimmatli qog'ozlarini listing uchun ariza berish to'g'risida qaror qabul qilish;

Kompaniyaning obligatsiyalar va emissiyaviy qimmatli qog'ozlarini joylashtirish;

mamlakatning amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan cheklashlarni hisobga olgan holda Kompaniya tomonidan joylashtirilgan aksiyalarni sotib olish;

mamlakatning amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda Kompaniyaga joylashtirilgan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

mamlakatning amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda Kompaniya tomonidan sotib olingan aktsiyalarni sotish;

aktsiyalarni sotib olish natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash va ularni sotib olish natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash;

aktsiyadorlar tomonidan ularning aktsiyalarini sotib olish bo'yicha da'volar taqdim etish natijalari to'g'risidagi hisobotni tasdiqlash;

Kompaniya tomonidan biznes-loyihalar va investitsiya dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, Kompaniya tomonidan bitimlar tuzish, o'zgartirish, muddatidan oldin to'xtatib turish bo'yicha qarorlar qabul qilish, mamlakatning amaldagi qonunchiligi tomonidan katta kattalikka kiritilgan;

Kompaniya kompaniyalarining korporativ tuzilmasi va mulkchilik tuzilmasini o'zgartirishga olib keladigan harakatlarga nisbatan Kompaniyaning pozitsiyasini aniqlash;

Qo'mitaning vazifalariga taalluqli "Siyosat" darajasida Kompaniyaning ichki hujjatlarini, shuningdek, ularga kiritilgan har qanday o'zgarishlar va qo'shimchalarni tasdiqlash; sohada:

biznesni tashkil qilish modelining ta'rifi (asosiy boshqaruv va biznes jarayonlarning ta'rifi, Kompaniyaning tashkiliy tuzilmasini shakllantirish tamoyillari va uning o'zgarishi);

barqaror rivojlanish;
investitsiyalar;
innovatsion faoliyat;
axborot siyosati;
dividend siyosati;
tashqi aloqalar (jumladan mintaqaviy siyosat, xalqaro faoliyat);

Kompaniyaning rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa faoliyat sohalari.

Qo'mita Nizom va Kompaniyaning Direktorlar Kengashi nomidan belgilangan vakolatlar doirasida Kompaniyaning Direktorlar Kengashi tomonidan vakolatli hisoblanadi. Qo'mita Kompaniyadan, ijro etuvchi organlaridan va mansabdor shaxslaridan Qo'mitaning o'z faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan har qanday axborotni so'rash va olishga haqlidir.

FAN BO'YICHA TESTLAR

”Korporativ boshqaruv” fanidan testlar

1. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati to‘g‘ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) *amaldagi huquqiy me’yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma’lum bir prinsiplari asosida korporativ tuzilmalarda muntazam foydaga erishish uchun amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyati; ,
- b) kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borish orqali aksiyadorlar daromadligini aniqlash;
- c) aksiyadorlar mulki ustidan nazoratni amalga oshirib, kapital tarkii teng taqsimlanishiga qaratilgan boshqaruv faoliyati;
- d) aksiyadorlik jamiyatlaridan erishilgan foydani mulkdorlar va menejerlar o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan faoliyat.

2. Korporativ boshqaruvning asosiy maqsadi qaysi javobda keltirilgan?

- a)*kompaniyaning bozordagi ulushi va kapitallashuv darajasini oshirib borish orqali aksiyadorlar daromadligini ta’minlash;
- b) korporativ tuzilmada xarajatlarning maqsadli yo'naltirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- c) boshqaruvning xalqaro talab va standartlariga muvofiqligini ta’minlash;
- d) aksiyadorlik jamiyatlari va mas’uliyati cheklangan jamiyatlarda davlat tomonidan boshqaruv sifatini oshirish.

3. Qaysi javobda korporativ boshqaruv obyekti to‘g‘ri berilgan?

- a) *korporativ munosabatlar;
- b) korporativ prinsiplar;
- c) korporativ ishtirokchilar;
- d) aksiyadorlik jamiyati zararlarini taqsimlash.

4. Korporativ boshqaruv subyektlari qaysi javobda keltirilgan?

- a) *aksiyadorlik jamiyatlari, aksiyadorlar, menejerlar, davlat, kreditorlar va boshqa manfaatdor shaxslar; b) qimmatli qog'ozlar bozori, fond bozori, qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi;
- c) barcha korporativ munosabatlarga nisbatan korporativ boshqaruv subyektlari sifatida qaraladi;
- d) korporativ boshqaruv amaliyotida alohida subyektlar mavjud emas.

5. Aksiyadorlik jamiyatlari qayta tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran necha kundan kechiktirmay o'z kreditorlarini bu haqda yozma shaklda xabardor etishi shart?

- a) *30 kundan;
- b) 30 ish kunidan;
- c) 7 ish kunidan;
- d) 60 kundan.

6. Aksiyadorlik jamiyati va xodim-aksiyador o'rtasidagi korporativ munosabatlar ko'lami qaysi javobda to'liq berilgan?

- a) *mehnat shartnomasi asosidagi hamda mulkdorlik nuqtayi nazaridan munosabatlar;
- b) mehnat shartnomasida belgilab qo'yilgan majburiyatlar yuzasidan munosabatlar;
- c) aksiyadorlik jamiyati va xodim-aksiyador o'rtasida alohida korporativ munosabatlar tizimi yuzaga kelmaydi;
- d) egalik qilib turgan ulushi asosida yuzaga keladigan munosabatlar.

7. Aksiyadorlik kompaniyalari faoliyatida professional menejmentga qachondan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlangan?

- a) *XX asrdan;
- b) 1980-yillardan;
- c) XXI asrdan;
- d) 1950-yillardan.

8. Korporativ boshqaruvning prinsiplari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?

- a)*qonuniylik, adolatlilik, hisobdorlik, javobgarlik, oshkoralik, shaffoflik;
- b) itoatkorlik, qonuniylik, majburiylik, ta'minlanganlik, tolovlilik;
- c) manfaatdorlik, muddatlilik, asoslanganlik, maqsadlilik, qonuniylik;
- d) xalqaro amaliyotda korporativ boshqaruv prinsiplari qabul qilinmagan, O'zbekistonda mustaqillik va liberallik prinsiplari mavjud

9. Korporativ boshqaruvning qaysi prinsipi aksiyadorlik kompaniyalarida aksiyadoming ulushidan qat'i nazar, bir xil munosabatda bo'lish, minoritar aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini ta'minlash lozimligini nazarda tutadi?

- a) *adolatlilik prinsipi;
- b) hisobdorlik prinsipi;
- c) shaffoflik prinsipi;
- d) oshkoralik prinsipi.

10. O'zbekistonda korporativ boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirishning huquqiy asosi hisoblangan eng asosiy qonunchilik hujjatini ko'rsating.

- a)* "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun;
- b) "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun;
- c) Korporativ boshqaruv kodeksi;
- d) Soliq kodeksi va "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonun.

11. Rivojlangan davlatlarda qo'llaniladigan Korporativ boshqaruv kodeksi qanday hujjat hisoblanadi?

- a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinib, aksiyadorlik jamiyatida rioya qilinishi majburiy hisoblangan hujjat;
- b) davlat qonun chiqaruvchi hokimiyati tomonidan qabul qilinib, barcha rioya qilishi

majburiy bolgan hujjat;

c) jamoat tashkilotlari tomonidan qabul qilinib, barcha rioya qilishi majburiy bolgan hujjat;

d) Jahon banki tomonidan qabul qilinib, barcha davlatlardagi aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan rioya qilinishi majburiy hujjat.

12. O'zbekistonda Korporativ boshqaruv kodeksi qaysi holatda majburiy hujjat hisoblanadi?

a) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangach, tegishli aksiyadorlik jamiyatida;

b) Korporativ boshqaruv kodeksi har qanday holatda majburiy amal qilinishi lozim bolgan hujjat hisoblanadi;

c) aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangach, ijroiya organi amal qilishi majburiy hisoblanadi;

d) ijroiya organi tomonidan tasdiqlangach, barcha xodimlar tomonidan rioya qilinishi majburiy hisoblanadi

13. Korporativ nazorat mexanizmi, qarorlar qabul qilish tartibi, amaldagi moliya tizimi bilan bevosita bog'liq holda kompaniya ichki boshqaruviga kapital bozorining ta'siri, korporativ qonunchilik, aholining iqtisodiy taraqqiyot natijasida shakllangan iqtisodiy xulq-atvor me'yorlarini yaxlit tarzda qamrab olgan tushuncha qaysi javobda keltirilgan?

a) *korporativ boshqaruv modeli;

b) korporativ nazorat modeli;

c) moliya bozori modeli;

d) iqtisodiy taraqqiyot modeli.

14. Aksiyadorlik jamiyatining muhim ishtirokchilari, muhim ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmi, model bo'yicha aksiyalarga egalik qilish tarkibi, moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati, direktorlar kengashi tarkibi, qonunchilik doirasi, axborotlarni oshkor qilish bo'yicha talablar, aksiyadorlar ma'qullashi talab etiladigan korporativ xatti-harakatlar:

a)* korporativ boshqaruv modelining asosiy belgilari yoki elementlari;

b) korporativ boshqaruv modellaridagi o'zaro keskin farqli jihatlar;

c) korporatsiyalar rivojlanish evolyutsiyasida yuzaga kelgan amaliyotlar;

d) kompaniyalarda amal qilish va e'tibor qaratish lozim bolgan jihatlar.

15. Jahon amaliyotida korporativ boshqaruvning tan olingan bazaviy modellari qaysi javobda berilgan?

a) *anglo-amerika modeli, nemis modeli, yapon modeli, oilaga tayangan modeli;

b) xitoy modeli, britan modeli, o'zaro hamkorlik modeli;

c) o'zaro hamkorlik va agentlik modeli, italyan modeli, bozor modeli;

d) bozor modeli, xitoy modeli, koreys modeli.

16. Axborotlarni oshkor qilish bo'yicha eng qat'ii talab qaysi modelda kuzatiladi?

- a) *anglo-amerika;
- b) oila;
- c) yapon va nemis;
- d) xitoy;

17. Anglo-amerika modelida korporatsiyalami moliyalashtirishning eng asosiy manbasi qaysi institut hisoblanadi?

- a)* fond bozori;
- b) sug'urta kompaniyalari;
- c) tijorat banklari;
- d) lizing kompaniyalari.

18. Korporativ boshqaruvning anglo-amerika modeliga xos xususiyat keltirilgan javobni belgilang.

- a) *aksiyadorlik kapitali tarqoqligi;
- b) banklarning faolligi;
- c) institutsional investorlar ulushi keskin yuqoriligi;
- d) kapitalning nazorat paketi oila a'zolariga tegishli ekanligi.

19. Qaysi modelda kompaniya ishchi-xodimlari va kasaba uyushma a'zolarining Kuzatuv kengashida ishtirok etishi majburiy etib belgilangan?

- a) *nemis;
- b) anglo-amerika;
- c) oila;
- d) yapon.

20. Qaysi model keyretsu modeli deb ham ataladi?

- a) *yapon;
- b) xitoy;
- c) nemis;
- d) anglo-amerika.

21. Qaysi davlatda ham Germaniyadagi singari banklar yirik aksiyadorlar hisoblanadi va ularga moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida qaraladi?

- a) *Yaponiyada;
- b) AQShda;
- c) Buyuk Britaniyada;
- d) O'zbekistonda.

22. O'zaro kapital almashinuvi (qarama-qarshi tarzda aksiyalarga egalik qilish) orqali korporativ boshqaruv tashkil etish amaliyoti qaysi modelga nisbatan ko'proq kuzatiladi?

- a) *yapon modelida;
- b) bir pog'onali umumiy tan olingan tamoyillarga asoslangan modelda;
- c) kontinental modelda.
- d) oila modelida.

23. Biznesning asosiy maqsadi oila manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish esa past darajadali kuzatiladigan korporativ boshqaruv modelini ko'rsating.

- a) *oila modeli;
- b) anglo-amerika modeli;
- c) o'zbek modeli;
- d) yapon modeli.

24. Korporativ boshqaruvning qaysi modelida boshqaruv piramida shaklida amalga oshiriladi?

- a)* oila modelida;
- b) tarmoq modelida;
- c) nemis modelida;
- d) yapon modeli.

25. Javobgarlikning cheklanganligi prinsipi va kapitalga egalik qilishning uni boshqarishdan alohidalashuvi asosida mulkchilikning qaysi shakli yuzaga kelgan?

- a) *aksiyadorlik;
- b) davlat;
- c) xususiy;
- d) aralash.

26. Aksiyadorlik jamiyatlari yuzaga kelishiga aynan qaysi omillar sabab bo'lgan?

- a)* MChJlarning mablag' jalb qilish imkoniyatlari cheklanganligi va ehtiyojlarining keskin ortib borishi;
- b) davlat iqtisodiyotni tartibga solishida murakkabliklar yuzaga kelganligi;
- c) qarz munosabatlarining yuqori darajada rivojlanishi va MChJlar imkoniyati muntazam ortib borishi;
- d) qishloq xo'jaligida renta munosabatlari rivojlanib, ehtiyojlarining muntazam qanoatlantirilganligi.

27. Aksiyadorlik kompaniyalari yuzaga kelishi nimalarga imkon berdi?

- a)* yuqori o'sishni ta'minlash, yirik loyihalarni amalga oshirish, qo'shimcha aksiyalar hisobiga qo'shimcha kapital jalb qilish;
- b) mas'uliyati cheklangan jamiyatlarini bozordan siqib chiqarish, davlatning aralashuvini keskin qisqartirish;
- c) halol raqobatni rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar bozoridagi hiyla-nayranglarning oldini olish;
- d) investorlar mablag'larini ishonchli tarzda himoya qilish, qishloq xo'jaligini

rivojlantirish.

28. XV asrda tashkil etilgan qaysi tashkilot birinchi aksiyadorlik jam'iyati hisoblanadi?

- a)* Genuya banki;
- b) Vest-indiya kompaniyasi;
- c) London fond birjasi;
- d) Moskva kemasozlik kompaniyasi.

29. Tarixan birinchi aksiyadorlik jam'iyati hisoblangan Genuya bankida ijroiya organ funksiyalarini bajaruvchi organ qanday nomlangan?

- a)* protektorlar kengashi;
- b) kotibiyat kengashi;
- c) kollegial kengash;
- d) auditorlar kengashi.

30. Genuya banki keyingi taraqqiyot bosqichlarida qanday kompaniyalar uchun biznesni tashkil etish namunasi bo'lib xizmat qilgan?

- a)* kolonial kompaniyalar;
- b) davlat kompaniyalari;
- c) xorijiy kompaniyalar;
- d) notarial kompaniyalar;

31. XVI asrda Gollandiya va Angliyada mulkchilikning aksiyadorlik shaklida tashkil etilgan kolonial kompaniyalar nima maqsadda tashkil etilgan?

- a) *mustamlaka hududlardagi boyliklarni faol tarzda o'zlashtirish;
- b) qo'shimcha investitsiyalar kiritish orqali " kolonial hududlarni rivojlantirish;
- c) mustamlaka hududlarida aksiyadorlik kompaniyalari tashkil etib, aholi bandligini ta'minlash;
- d) mustamlaka hududlariga aholini ko'chirish va bandlik darajasini oshirish.

32. Yevropa tajribasi asosida Shimoliy Amerikada ham korporatsiyalar tashkil etila boshlanishi qaysi davrga to'g'ri keladi?

- a) *XIX asr boshiga;
- b) XV asr o'rtalariga;
- c) 1929-1933-yillarga;
- d) XX asr 70-yillariga.

33. Aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishi yuqori darajada ta'sir ko'rsatgan omilni ko'rsating?

- a) *fond birjalarining faoliyati yo'lga qo'yilishi;
- b) auditorlik tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilishi;
- c) aksiyalar yopiq muomalasi tashkil etilishi;

d) banklar va sug'urta kompaniyalari faoliyati uyg'unlashuvi.

34. 1930-yillarga kelib rivojlangan mamlakatlar amaliyotida korporativ boshqaruv bilan bog'liq qanday amaliyot kuzatila boshlandi

- a) *menejerlar sinfi shakllandi va professional boshqarishga o'tish yuz berdi;
- b) aksiyalar va korporativ obligatsiyalar muomalasi parallel ravishda yo'lga qo'yildi;
- c) tashqi mustaqil nazorat sifatida auditorlik nazorati yolga qo'yildi;
- d) fond bozorida investitsion vositachilar faoliyati amalga oshirila boshlandi.

35. Aksiyadorlik jamiyatlarining afzalliklari keltirilgan javobni belgilang.

- a)* aksiyalar, obligatsiyalar chiqarish orqali qisqa muddatda katta miqdorda kapital jalb qilish, qulay shartlarda kreditlar jalb qilish, keng kolamli innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish;
- b) MChJlar bilan raqobatlasha olish; keng kolamli kredit operatsiyalarini amalga oshirish, har bir faoliyatini sug'urtalash;
- c) davlat bilan hamfikir bolish orqali faoliyatni rivojlantirish; davlat mulkini xususiylashtirib olish, davlat vakilini boshqaruvchilikka jalb qilish;
- d) xorijiy davlatlar bilan bevosita aloqa o'rnatish, chet eldan mutaxassislar jalb qilish, xorijiy kreditlar olish.

36. Aksiyadorlik jamiyatlarining kamchiliklari keltirilgan javobni belgilang.

- a)* kapitalning markazlashuvi monopoliyaga sabab boladi, yollanma menejment bilan bogliq risklar yuzaga keladi, minoritar aksiyadorlar huquqlari har doim ham ta'minlanmaydi, aksiyalar ochiq muomalasi qo'shib olishlarga yoki nazoratning almashinuviga olib keladi;
- b) aksiyalarni ochiq joylashtirishga majburligi kapital jalb qilishni murakkablashtiradi, korporativ obligatsiyalar chiqarishga majburligi qarz kapitalini oshiradi;
- c) strategik investorlarni jalb qilish murakkablik kasb etadi, xorijiy investorlarni jalb qilishga majburlik g'oyani amalga oshirishga to'sqinlik qiladi;
- d) aksiyadorlarning chiqib ketishiga ko'p vaqtni oladi, davlat bilan hamfikir bolish aksiyadorlar noroziligiga sabab boladi, aksiyadorlarning chiqib ketishi faoliyatning to'xtab qolishiga olib keladi.

37. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv organlari to'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi, ijroiya organi;
- b) ichki audit xizmati, moliyaviy masalalar bo'yicha direktor, xodimlar bolimi;
- c) tashqi auditorlik tashkiloti, konsalting tashkiloti, bosh hisobchi;
- d) yurist-maslahatchi, korporativ konsultant, sanoq komissiyasi;

38. Aksiyadorlar soni besh yuzdan ortiq bo'lganda kuzatuv kengashining son tarkibi nechtadan kam bo'lishi mumkin emas? Aksiyadorlari soni bir mingdan ortiq bo'lgandk-chi?

- a)* mos ravishda yetti va to'qqiz a'zodan;
- b) mos ravishda sakkiz va o'n a'zodan;
- c) mos ravishda besh va o'n a'zodan;
- d) qonunchilikda faqatgina toq sonda bo'lishi belgilangan.

39. Aksiyadorlik jamiyati kuzatuv kengashi a'zolari saylovi qanday tartibda ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

- a)* kumulyativ;
- b) oddiy;
- c) malakali ko'pchilik;
- d) qayta. ovoz berish.

40. Aksiyadorlik jamiyatining kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavi asosida kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) *direktor yoki jamiyat boshqaruvi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- d) bosh hisobchi va xodimlar bo'limi boshlig'i.

41. Aksiyadorlik jamiyatlarida eng yuqori boshqaruv organi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) ijroiya organi;
- c) kuzatuv kengashi;
- d) taftish komissiyasi.

42. Aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining reyestri aksiyadorlar umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan qancha muddat oldin shakllantiriladi?

- a)* uch ish kuni oldin;
- b) bir oy oldin;
- c) moliya yili tugagandan so'ng bir oy ichida;
- d) bir kun oldin.

43. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarga qanday tartibda yetkaziladi?

- a)* yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida yetti kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan ottiz kun oldin jamiyat veb-saytida, OAVlarida e'lon qilinadi, aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi;
- b) moliya yili yakunlangach bir oy ichida davlat tele-radio kanallarida e'lon beriladi;
- c) yig'ilish sanasidan 10 kun kechiktirmay ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi;
- d) yig'ilish o'tkaziladigan sanadan uzog'i bilan o'ttiz kun oldin jamiyat veb-saytida e'lon qilinadi.

44. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibi kim tomonidan tuziladi?

- a) *kuzatuv kengashi;
- b) imtiyozli aksiyalar egalari;
- c) ijroiya organi;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati.

45. Aksiyadorlar qanday tartibda aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga haqli?

- a)* kamida bir foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili tugagach o'ttiz kundan kechiktirmay;
- b) kamida besh foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach besh kundan kechiktirmay;
- c) kamida 10 foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach o'ttiz kundan kechiktirmay;
- d) faqatgina 10 foizdan ortiq ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar moliya yili yakunlangach 10 kundan kechiktirmay;

46. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga qanday masalalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi?

- a) *«turli masalalar», «boshqa masalalar», «har xil masalalar» mazmunidagi masalalar;
- b) sof foydani taqsimlash, faoliyatni qayta tashkil etish;
- c) aksiyadorlik jamiyatini tugatish, boshqa aksiyadorlik jamiyatini qo'shib olish;
- d) ijroiya organi a'zosi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish, taftish komissiya a'zosi vakolatini muddatdan oldin tugatish.

47. Aksiyadorlik jamiyatida kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada kamida besh foiz ovoz beruvchi aksiyalarga egalik qiluvchi aksiyadorlar yozma talabi asosida qanday yig'ilishlar o'tkaziladi?

- a) *aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi;
- b) aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi;
- c) kuzatuv kengashi yig'ilishi;
- d) ijroiya organi yig'ilishi;

48. Kuzatuv kengashi tomonidan ovozlarni sanab chiqish, ishtirok etayotgan aksiyadorlarni ro'yxatga olish, shuningdek ovoz berish byulletenlarini tarqatish uchun tuziladigan tarkib qanday nomlanadi?

- a)* sanoq komissiyasi;
- b) taftish komissiyasi;
- c) ichki audit xizmati;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati.

49. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida kvorumni aniqlash, ovoz berish

huquqlarining amalga oshirilishi munosabati bilan yuzaga keladigan masalalami tushuntirish, qo'yilgan masalalar bo'yicha ovoz berish tartibini tushuntirish, ovozlam i sanab chiqish ovoz berish yakunlari to'g'risida bayonnoma tuzish, ovoz berish byulletenlarini AJ arxiviga topshirish qaysi tuziliianing vazifasi hisoblanadi?

- a) *sanoq komissiyasi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kotibiyati;
- d) ijroiya organi.

50. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan qanday tartibda amalga oshiriladi; davlat vakilining ishtiroki-chi?

- a)* aksiyador shaxsan yoki vakili orqali; davlat vakili shaxsan o'zi;
- b) har ikkalasi ham shaxsan ishtirok etishi shart;
- c) har ikkalasi ham shaxsan yoki ishonchli vakili orqali;
- d) davlat vakilining ishonchli vakili ishtiroki mumkin, lekin aksiyador shaxsan ishtirok etishi shart.

51. Qanday holatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi?

- a) *ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda 50 foizdan ko'proq ovozga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bolsa;
- b) ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda 40 foizdan ko'proq ovozga ega bolgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bolsa;
- c) ro'yxatdan o'tkazish yakunlangach 75 foizdan ko'proq ovozga ega bolgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bolsa;
- d) 55 foizdan ko'proq ovozga ega bolgan aksiyadorlar ro'yxatdan o'tgan bolsa;

52. Ustavga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish yoki jam iyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash, jamiyatni qayta tashkil etish, jamiyatni tugatish, yirik bitimlar tuzish to'g'risida qarorlar qanday tartibda qabul qilinadi?

- a) *malakali ko'pchilik ovozi bilan;
- b) oddiy ko'pchilik ovozi bilan;
- c) kumulyativ ovoz berish bilan;
- d) qayta ovozga qo'yish yold bilan.

53. Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv tizimini baholash kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

- a) *fond birjasi, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shtatida tegishli korporativ boshqaruvchi attestati bolgan auditorlik tashkilotlari; reyting agentliklari, Korporativ boshqaruv ilmiy-talim markazi;
- b) aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan mustaqil yoki soliq maslahati tashkilotlari;
- c) iqtisodiyot vazirligi, moliya vazirligi, davlat raqobat qo'mitasi;
- d) investitsion fondlar, fond birjasi, soliq maslahati tashkilotlari.

54. Korporativ boshqaruv tizimini baholashni o'tkazish uchun mustaqil tashkilotni tanlash aksiyadorlik jamiyati qaysi boshqaruv organi qarori asosida amalga oshiriladi?

- a)* kuzatuv kengashi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- c) ijroiya organi;
- d) taftish komissiyasi.

55. Korporativ boshqaruv tizimini baholash yo'nalishi noto'g'ri keltirilgan javobni belgilang.

- a)* xodimlar bilan mehnat munosabatlari tashkil etilish holati;
- b) korporativ boshqaruv kodeksini joriy etishga tayyorgarlik jarayonini va kodeks tavsiyalariga amal qilinishini baholash;
- c) axborot siyosatini baholash, moliyaviy natijalami baholash;
- d) MHXS va XASga muvofiq elon qilishga o'tishni baholash.

56. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori va eng past ball chegarasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a)* 1200; -1200;
- b) 100;-100;
- c) 600; -600;
- d) 1000; -1000.

57. Aksiyadorlik jamiyatlari namunaviy tashkiliy tuzilmasi qaysi qonunchilik hujjati bilan tasdiqlangan?

- a) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015-yildagi №PF-4720 sonli farmonida;
- b) "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunda;
- c) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.12.2015-yildagi №PQ-2455 sonli qarorida;
- d) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2015-yildagi №PQ-2454 sonli qarorida.

58. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda eng yuqori ball qaysi yo'nalishga ajratilgan?

- a) *axborot siyosatiga;
- b) moliyaviy natijalarga;
- c) namunaviy tashkiliy tuzilmaga muvofiqligiga;
- d) faoliyatning boshqa yo'nalishlariga.

59. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda axborot siyosatini baholash aynan qaysi jihatlar bo'yicha belgilangan?

- a)* davlat tilida, rus va ingliz tillarida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga doir axborotlarning aksiyadorlik jamiyati saytida va boshqa manbalarda oshkor qilinganligi;
- b) tijorat sirining elon qilinganligi yoki maxfiylik ta'minlanganligi;
- c) aksiyadorlik jamiyatlari haqida ommaviy axborot vositalarida muntazam maqolalar, ko'rsatuvlar berilganligi;
- d) korporativ boshqaruv tizimini baholashda axborot siyosatini baholash amalga oshirilmaydi.

60. Korporativ boshqaruv tizimini baholashda moliyaviy natijalami baholashda qaysi jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi?

- a) *biznes-rejada belgilangan prognoz moliyaviy natijalarga erishilganligi;
- b) raqobatchidan ustun kelinganligi;
- c) bozor segmenti egallanganli;
- d) aksiya kursi o'zgarish darajasi.

61. Aksiyadorlik jamiyati sifatni boshqarish tizimida e'tibor qaratiladigan asosiy jihat qaysi javobda berilgan?

- a) *Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) sertifikati olinganligi;
- b) mahsulot sifati bo'yicha iste'molchilar shikoyatlari mavjud emasligi;
- c) xodimlar qo'nimsizligi past darajada ekanligi;
- d) bankrotlik ehtimoli mavjud emasligi.

62. Aksiyadorlik jamiyat korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari qanday holatda qoniqarli hisoblanadi?

- a) *0 dan 600 ballgacha natija bilan baholanganda;
- b) - 600 dan 0 ballgacha natija bilan baholanganda;
- c) - 600 dan 600 ballgacha natija bilan baholanganda;
- d) 600 dan 1200 ballgacha natija bilan baholanganda.

63. Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlarida EBITDA ko'rsatkichi qaysi ko'rsatkich?

- a) *foizlar, soliqlar va amortizatsiya chegirilmagan holatdagi foyda;
- b) foizlar va soliqlar tolangunga qadar foyda;
- c) soliq tolangunga qadar foyda;
- d) sof foyda.

64. Samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari noto'g'ri berilgan javobni ko'rsating.

- a) *mahsulot tannarxi, inflyatsiya darajasi;
- b) xarajat va daromadning o'zaro nisbati, jalb qilingan kapital rentabelligi;
- c) aksiyadorlik kapitali rentabelligi, aksiyadorlar investitsiyasi rentabelligi;
- d) aktivlar rentabelligi, mutlaq likvidlik va moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentlari.

65. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va korporativ boshqaruv amaliyotiga doir masalalar bo'yicha jarayon ishtirokchilari o'rtasida o'zaro kelishuvga erishilmasligi natijasida yuzaga keladigan holat qanday nomlanadi?

- a) *korporativ nizolar;
- b) korporativ munozaralar;
- c) korporativ anglashilmovchilik;
- d) korporativ fikrlar qarama-qarshiligi.

66. Korporativ nizolarning obykti va subyektlari to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- a)* tomonlarning manfaatlari va korporativ munosabatlar ishtirokchilari;
- b) aksiya kursidagi o'zgarishlar va baholovchi tashkilotlar;
- c) qaror qabul qilishdagi xatoliklar va aksiyadorlar;
- d) munosabatlar ishtirokchilari va foydani taqsimlash masalasi.

67. Qaysi javobda korporativ munosabatlar subyektlari o'rtasidagi ziddiyatlar sabablari keltirilgan?

- a) *amaldagi qonunchilik me'yorlari buzilishi, korporativ tuzilmalarda axborot yopiqqligi, foydani taqsimlash bilan bog'liq holda aksiyadorlar noroziligi;
- b) boshqaruv organlari vakolatlarining uzaytirilishi, ichki nazoratning yo'lga qo'yilishi;
- c) raqobatchi kompaniyaning faoliyati tugatilishi, xorijsda vakolatxona va filiallar ochilishi;
- d) minoritar aksiyadorlarning o'z ulushlarini ixtiyoriy sotishlari, dividend miqdorining o'sib borishi.

68. Korporativ nizolarning qamroviga ko'ra turlari to'g'ri berilgan javobni belgilang.

- a)*ichki va tashqi korporativ nizolar;
- b) turli aksiyadorlar guruhlar o'rtasidagi nizolar;
- c) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;
- d) boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar.

69. Tashqi korporativ nizolarning ishtirokchilariga ko'ra turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) *davlat nazorat organlari va aksiyadorlik jamiyati o'rtasidagi nizolar, nodo'stona qo'shib olishlar natijasidagi nizolar, kapital bozorining faol ishtirokchisi sifatida davlat va korporativ tuzilma o'rtasidagi nizolar;
- b) turli aksiyadorlar guruhlar o'rtasidagi nizolar, aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;
- c) ichki va tashqi korporativ nizolar;
- d) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar, boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar.

70. Korporativ nizolam ing predmetlariga ko'ra turlari qaysi javobda berilgan?

- a)*korporativ tuzilma ustidan nazorat o'rnatish bilan bog'liq nizolar, daromadlarni yashirin tarzda taqsimlash natijasidagi nizolar, ustav kapitalidagi ulushini oshirish bilan bogliq

nizolar;

b) turli aksiyadorlar guruhlar o'rtasidagi nizolar, aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar;

c) aksiyadorlar va boshqaruvchilar o'rtasidagi nizolar, boshqaruvchilar va mehnat jamoasi o'rtasidagi nizolar;

d) ichki va tashqi korporativ nizolar.

71. Korporativ munosabatlar ishtirokchilari, ya'ni korporativ tuzilmaning aksiyadorlari, boshqaruv organlari, menejerlari o'rtasidagi nizolar qanday nizolar hisoblanadi?

a) *ichki korporativ nizolar

b) tashqi korporativ nizolar;

c) aralash korporativ nizolar;

d) manffatli korporativ bahslar.

72. Aksiyadorlar jamiyatlarida korporativ nizolarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tasdiqlanadigan nizom nomini belgilang.

a) *"Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risida"gi nizom

b) "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi nizom;

c) "Axborot siyosati to'g'risida"gi nizom;

d) "Dividend siyosati to'g'risida"gi nizom.

73. Har qanday turdagi manfaatlar qarama-qarshiligini bartaraf qilish uchun boshqaruv va nazorat organlari, mansabdor shaxslari, xodimlari nimalarni amalga oshirishlari shart?

a) *qonunchilik va ichki hujjatlari talablariga amal qilish, daromadlilikni va axborotlar ochiqiligini ta'minlash;

b) barcha axborotlarni oshkor qilish, daromadlarni muntazam reinvestitsiya qilish, ishchi-xodimlarni kuzatuv kengashiga jalb qilish;

c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishchi-xodimlar ishtirokini ta'minlash, qo'shib oluvchilar bilan muzokaralar o'tkazish;

d) korporativ obligatsiyalar muomalaga chiqarilishining oldini olish, ishchi-xodimlarni kuzatuv kengashiga jalb qilish.

74. Kompaniyaning ijroiya organi va kuzatuv kengashi o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib chiqishi bosh sababini ko'rsating.

a) *ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining pastligi yoki mavjud emasligi, mehnat shartnomasining muddatidan oldin bekor qilinishi;

b) aksiyadorlar umumiy yig'ilish vakolatlarining ijroiya organiga yuklatilishi;

c) ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi; Ifil

d) kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi.

75. Kompaniyaning va aksiyadorlar o'rtasida manfaatlarning qarama-qarshiligi kelib

chiqishi bosh sababini ko'rsating.

- a)* muntazam ravishda dividend tolanmasligi;
- b) ijroiya organi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi;
- c) kuzatuv kengashi a'zolarini mukofotlash darajasining keskin yuqoriligi.
- d) oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlarning keskin yuqoriligi.

76. “Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizam kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi;
- d) Davlat raqobat qo'mitasi.

77. “Ichki nazorat to‘g‘risida”gi nizam kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi;
- d) Davlat raqobat qo'mitasi.

78. Kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolar i kiritish qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?

- a) *“Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi nizam yoki ustavda;
- b) “Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to‘g'risida”gi nizomda;
- c) “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida’ gi qonunda;
- d) “Raqobat to'g'risida”gi qonunda.

79. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning va ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?

- a) *ichki audit xizmati va taftish komissiyasi;
- b) kuzatuv kengashi va ijroiya organi;
- c) buxgalteriya bo'limi va marketing xizmati;
- d) minoritar aksiyadorlar qo'mitasi va yurist-maslahatchi.

80. Ichki audit xizmati qaysi boshqaruv organiga hisobdor hisoblanadi?

- a)*kuzatuv kengashiga;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga;
- c) ijroiya organiga;
- d) taftish komissiyasiga.

81. Taftish komissiyasi qaysi boshqaruv organiga hisobdor hisoblanadi?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga;
- b) kuzatuv kengashiga;

- c) ijroiya organiga;
- d) taftish komissiyasiga.

82. “Taftish komissiyasi to‘g‘risida”gi nizom kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;
- b) kuzatuv kengashi raisi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi.

83. Aksiyadorlik jamiyatining qaysi nazorat organi moliyaxo‘jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirgan holda bevosita aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga hisobdor hisoblanadi?

- a) *taftish komissiyasi;
- b) ichki audit xizmati;
- c) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi;
- d) tashqi auditorlik tashkiloti.

84. Bevosita kuzatuv kengashiga hisobdor hamda AJ ijroiya organi va tarkibiy bo‘linmalari, vakolatxona va filiallari tomonidan qonunchilik va ichki hujjatlarga rioya qilinishini tekshirish, ular ishini nazorat qilish va baholash, ma’lumotlarni buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishining to‘liqliligi va ishonchliligini ta’minlash vazifasi yuklatilgan ichki nazorat bo‘g‘ini qanday nomlanadi?

- a) *ichki audit xizmati;
- b) taftish komissiyasi;
- c) tashqi audit xizmati;
- d) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi.

85. Barcha aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit xizmatini tashkil etish majburiymi?

- a) *yo‘q, faqat aktivlarining balans qiymati eng kam ish haqi miqdorining yuz ming barobaridan ko‘p bo‘lgan AJlarida majburiy;
- b) ha, majburiy;
- c) ha, majburiy, istisno holatlarda MChJlarda ham majburiy;
- d) ichki audit xizmati faqat ixtiyoriylik asosida tashkil etiladi.

86. Belgilangan muddatlarda aksiyadorlar tomonidan taftish komissiyasi a’zolariga nomzodlar ko‘rsatish bo‘yicha takliflar kiritilmagan holatlarda taftish komissiyasiga saylash uchun mustaqil ravishda nomzodlar ro‘yxatini belgilash kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) *kuzatuv kengashi;
- b) taftish komissiyasi raisi;
- c) ijroiya organi;
- d) kuzatuv kengashi huzuridagi nazorat qo‘mitasi.

87. Taftish komissiyasining xulosalari kim tomonidan ma'qullanadi?

- a) *aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- b) kuzatuv kengashi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi.

88. Ichki audit xizmati hisoboti kim tomonidan ma'qullanadi?

- a)*kuzatuv kengashi;
- b) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi;
- c) ijroiya organi rahbari;
- d) taftish komissiyasi raisi

89. Qaysi javobda aksiyadorlarning huquqlari iio to'g'ri berilgan?

- a) boshqa aksiyadorlar aksiyalarini o'z nomidan sotish, aksiyadorlik jamiyatida xodim sifatida ishlash, tijorat sirini oshkor qilish;
- b) aksiyadorlar reyestriga kiritilish, depo hisobvarag'idan ko'chirma olish; dividendlar tarzida olish;
- c) aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish, depo hisobvarag'idan ko'chirma olish, tegishli shartlar bajarilganda kuzatuv kengashi a'zolariga nomzod ko'rsatish;
- d) olgan dividendini erkin tasarruf etish; aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ishtirok etish, aksiyalarni boshqalarga o'tkazish.

90. Aksiyadorlik jam'iyati tomonidan qo'shimcha aksiyalar joylashtirilayotganda ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning imtiyozli sotib olish huquqi qaysi hujjatda belgilab qo'yiladi?

- a) *ustavda;
- b) "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonunda;
- c) "Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi nizomda
- d) imtiyozli aksiyalar muomalasini tashkil etish bo'yicha tartiblarda.

91. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishi va ovoz berishi yig'ilish kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish natijalariga ta'sir o'tkazmaydigan aksiyalar egalari qanday nom bilan ataladi?

- a) *minoritar aksiyadorlar;
- b) majoritar aksiyadorlar;
- c) oddiy aksiyadorlar;
- d) imtiyozli aksiyadorlar.

92. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tashkil etilishi mumkinligi qaysi hujjatda belgilab qo'yilishi lozim?

- a) *ustavda;
- b) umumiy yig'ilish qarorida;

- c) ijroiya organi buyrug'ida;
- d) alohida hujjat talab qilinmaydi.

93. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining vakolatiga kiradigan masalalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a) *minoritar aksiyadorlarning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq murojaatlarini ko'rib chiqish va tegishli organlarga murojaatlar kiritish;
- b) aksiyadorlik jamiyatlari sof foydasini taqsimlash, aksiyadorlar reyestrini yuritish;
- c) majoritar aksiyadorlar bilan hisob-kitoblar qilish, majoritar aksiyadorlar ulushini o'z hisobidan sotish;
- d) minoritar aksiyadorlar majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, minoritar aksiyadorlar dividendlarini markazlashgan tartibda taqsimlash;

94. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi a'zolarining soni qaysi hujjatda belgilab qo'yiladi?

- a) *jamiyat ustavida;
- b) umumiy yig'ilish qarorida;
- c) qo'mita faoliyatini tartibga soluvchi nizomda;
- d) ichki buyruqlarda.

95. Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi qabul qilingan qarorlar to'g'risida har yili kimning oldida hisobot beradi?

- a) *aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida;
- b) minoritar aksiyadorlar yig'ilishida;
- c) kuzatuv kengashi yig'ilishida;
- d) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi huzurida.

96. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida kuzatuv kengashining yoki ijroiya organining qaysi tuzilma faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi?

- a) *minoritar aksiyadorlarning qo'mitasi faoliyatiga;
- b) ichki audit xizmatiga;
- c) buxgalteriya bolimi faoliyatiga;
- d) marketing bolimi faoliyatiga.

97. Minoritar aksiyadorlar qo'mitasi o'z faoliyatida haqli bo'lmagan jihatni belgilang.

- a) *jamiyatning xo'jalik faoliyatiga aralashishga haqli emas;
- b) ichki hujjatlarni ijroiya organidan so'rab olishga haqli emas;
- c) kuzatuv kengashi yoki taftish komissiyasiga nomzodlar kiritishga haqli emas;
- d) aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibiga masala kiritishga haqli emas.

98. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mamlakatlar reytingi qaysi tomonidan tuziladi va qaysi hisobotda o'z aksini topadi:

- a) *Jahon banki guruhi, "Biznes yuritish" hisoboti;
- b) Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo kredit hisoboti;

- c) Jahon banki guruhi, “Investitsiyalar” hisoboti;
- d) Xalqaro moliya korporatsiyasi, “Soliq ma’urchiligi” hisoboti.

99. Minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mamlakatlar reytingi aniqlanishida aynan qaysi mezonlar baholanadi?

- a) *bitimlar haqida axborotlarni oshkor etish indeksi, direktorlarning javobgarligi indeksi; manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish indeksi, korporativ shaffoflik indeksi, aksiyadorlik boshqaruvi indeksi.
- b) davlat aralashuvi indeksi, qonuniylik indeksi, raqobat indeksi, aksiyadorlik jamiyati daromadlilik indeksi;
- c) kreditlash indeksi, adolatlilik indeksi, aksiyadorlik jamiyati daromadlilik indeksi, iqtisodiy sudlar amaliyoti indeksi;
- d) soliq to'lash bo'yicha mamlakat reytingi, tadbirkorlikni ro'yxatga olish reytingi

100. Davlatning korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ishtiroki yo'nalishlarini belgilang.

- a) *korporativ boshqaruv amaliyoti bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qiladi, faoliyat nazoratini olib boradi, bevosita o'z ulushini kiritadi;
- b) aksiyadorlarning muntazam dividend olishini ta'minlaydi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ustidan nazorat o'natadi;
- c) vakil qo'yish orqali kuzatuv kengashi va ijroiya organi faoliyati muvofiqligini ta'minlaydi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish vaqtini belgilaydi;
- d) davlat vakilini qo'yish orqali qarorlar qabul qiladi, moliya inspektorini tayinlaydi.

101. Davlatning korporativ boshqaruvda bevosita ishtiroki nimalar asosida amalga oshiriladi?

- a) *AJ ovoz beruvchi aksiyalariga to'liq, faqat nazorat paketiga yoki ustav kapitalida malum bir ulushga egalik qilish, oltin aksiya amaliyotini joriy etish;
- b) davlat vakilini qo'yish orqali qarorlar qabul qiladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishini o'tkazish vaqtini belgilaydi;
- c) kuzatuv kengashi va ijroiya organi faoliyati muvofiqligini ta'minlaydi;
- d) ijroiya organi toliq davlat tomonidan shakllantiriladi, boshqaruv huquqini beruvchi imtiyozli aksiyalarni joriy etadi.

102. Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki kamchiliklari qaysi javobda keltirilgan?

- a) *AJ mustaqilligini chegaralaydi, veto qo'yish huquqining berilishi qaror qabul qilishning kechikishiga olib keladi, boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanadi;
- b) monopoliya tartibga solib turiladi va narxlar barqarorligi ta'minlanadi, professional boshqaruv amalga oshiriladi;
- c) yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotligining oldi olinadi va tugatilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- d) strategik ahamiyatga ega iqtisodiyot soha va tarmoqlarida samarali davlat nazorati o'natiladi, professional boshqaruv amalga oshiriladi;

103. Davlatning korporativ boshqaruvdagi ishtiroki afzalliklari keltirilgan javobni belgilang.

- a) *monopoliya tartibga solib turiladi, strategik tarmoqlarida samarali davlat nazorati o'rnatiladi, yirik aksiyadorlik jamiyatlari bankrotligining oldi olinadi va tugatilishiga yo'l qo'yilmaydi;
- b) xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, boshqa aksiyadorlarning huquqlari chegaralanishiga olib keladi;
- c) davlatning haddan tashqari ko'p aralashuvi korporativ tuzilmaning mustaqilligini chegaralaydi;
- d) xususiy mulkdorlar sinfining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, aksiyadorlik jamiyatlariga investorlarning qiziqishlari nisbatan past boladi.

104. Bir yoki bir nechta yuridik shaxs faoliyatini tugatib, ularning huquq va majburiyatlarini boshqa yuridik shaxsga o'tkazish nima deb e'tirof etiladi?

- a) *jamiyatni qo'shib olish;
- b) ajratib chiqarish;
- c) jamiyatni tugatish;
- d) jamiyatni bolish.

105. "Davlat ishtirokidagi biznes tuzilmalarini tashkil etishini cheklash, bu borada bozorga xos mexanizmlarni ishlab chiqish, davlatning ayrim funksiyalarini xususiy sektorga o'tkazish darkor"ligi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning qaysi ma'ruzasida berilgan?

- a) *2017-yil 22-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida;
- b) Tanqidiy tahlil, qat'i tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak;
- c) Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz;
- d) Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.

106. Ochiq aksiyadorlik jamiyatlarida davlat boshqaruvini saqlab qolish vositasi sifatida amal qilib, davlat vakilining alohida huquqlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan amaliyot qanday nomlanadi?

- a) *oltin aksiya;
- b) boshqaruv huquqini beruvchi imtiyozli aksiya;
- c) veto aksiyasi;
- d) davlat aksiyasi.

107. Davlat tomonidan kompaniyalarning moliyalashtirish va daromad olish vositasi hisoblanmaydi, oldi-sotdi qilinmaydigan aksiya qanday nomlanadi.

- a) *oltin aksiya;
- b) davlat boshqaruvi huquqini taqdim etuvchi aksiya;

- c) imtiyozli aksiya;
- d) davlat aksiyasi.

108. Oltin aksiya amaliyotining asoschisi kim?

- a) *Margaret Tetcher;
- b) Toni Bier;
- c) Ronald Reygen;
- d) Teodor Ruzvelt.

109. Qachon Yevropa arbitraj sudi tomonidan oltin aksiya amaliyotini bekor qilish bo'yicha qaror qabul qilingan?

- a) *2008-yilda;
- b) 1980-yilda;
- c) 2017 -yilda;
- d) 1998-yilda.

110. Vazirlar Mahkamasining “Davlat tomonidan aksiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda ishtirok etish maxsus huquqi («oltin aksiya»)dan foydalanish tartibi to'g'risida”gi qarori qachon qabul qilingan?

- a) *2007-yil 24-iyulda;
- b) 1999-yil 5-fevralda;
- c) 1996-yil 26-aprelda;
- d) 2014-yil 6-mayda.

111. «Oltin aksiya» qanday aksiyadorlik jamiyatlarida joriy etilishi mumkin?

- a) *ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan yoki bu ulush 25 foizdan oshmaydigan jamiyatlarda;
- b) ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan oshmaydigan jamiyatlarda;
- c) ustav kapitalida davlat ulushi mavjud bo'lmagan aksiyadorlik jamiyatlarida;
- d) ustav kapitalida davlat ulushi 50 foizdan ortiq jamiyatlarda

112. Aksiyadorlik jamiyati tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish bilan bog'liq bitim yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etsa bunday bitimlar qanday bitim hisoblanadi?

- a) *yirik bitim;
- b) hamkorlik bitimi;
- c) kafillik bitimi;
- d) oddiy bitim.

113. Aksiyadorlik jamiyat sof aktivlarining qiymati qanday tartibda aniqlanadi?

- a) *buxgalteriya hisobi malumotlari bo'yicha, jamiyat aktivlari va majburiyatlarining umumiy summasi o'rtasidagi farq sifatida;
- b) aksiyadorlik jamiyatlari aktivlari va passivlari o'rtasidagi farq sifatida;
- c) uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar o'rtasidagi farq sifatida;
- d) buxgalteriya hisobi malumotlari bo'yicha, jamiyat aktivlari va uzoq muddatli majburiyatlar umumiy summasi o'rtasidagi farq sifatida;

114. Bitim yirik bitim sifatida belgilanishining asosiy mezonlari qaysi javobda berilgan?

- a) *olish yoki berish belgilangan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 15 foizidan ortiq bo'lsa;
- b) berilayotgan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 25 foizidan ortiq bolsa;
- c) olinayotgan mol-mulk qiymati sof aktivlar miqdorining 25 foizidan ortiq bolsa;
- d) aksiyadorlik jamiyati faoliyatida yirik bitim tushunchasi qollanilmaydi.

115. Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror qanday tartibda qabul qilinadi?

- a) *kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan;
- b) kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan 75 foizdan ortiq ovoz bilan;
- c) malakali ko'pchilik ovozi bilan;
- d) kuzatuv kengashining a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan.

116. Yirik bitimlar tuzish to'g'risidagi qarorlar qanday holatda kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi?

- a) *jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizidan 50 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- b) jamiyat sof aktivlari miqdorining 50 foizidan ortiqni tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- c) jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizidan ortiqni tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;
- d) jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususidagi bitimlar;

117. Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala qanday hal qilinadi?

- a) *aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqiladi;
- b) kuzatuv kengashi a'zolari o'rtasida qayta ovozga qo'yiladi;
- c) bitim tuzishdan voz kechiladi;
- d) bir oy muddatda bitim shartlari qayta ko'rib chiqilib, keyin ovozga qo'yiladi.

118. Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin kim tomonidan amalga oshiriladi?

- a) *ijroiya organi;
- b) taftish komissiyasi;
- c) bosh hisobchi;
- d) kuzatuv kengashi.

119. Tashkiliy-huquqiy shaklni o'zgartirish, boshqa korporativ tuzilmalar bilan o'zaro birlashish, qo'shib olish yoki ajralib chiqish amaliyotlari aksiyadorlik jamiyatlarida umumiy holda qanday nomlanadi?

- a) *qayta tashkil etish;
- b) korporativ birlashish;
- c) korporativ o'zgarish;
- d) korporativ tugatilish.

120. Aksiyadorlik jamiyatining yigirma foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik yoki jismoniy shaxslar, kuzatuv kengashining a'zosi, jamiyat direktorining yoxud jamiyat boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan qanday shaxslar hisoblanadi?

- a) *affillangan shaxslar;
- b) daxldor shaxslar;
- c) kreditorlar;
- d) investorlar.

121. Affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim qanday hollarda sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin?

- a) *qonunchilikda bitim tuzish bo'yicha belgilangan talablarga rioya etilmaganda, bitimni jamiyat uchun zararli deb topishga doir asoslar mavjud bolganda;
- b) ichki audit xizmati bitim yuzasidan ijobiy xulosa taqdim etganda;
- c) bitim qiymati sof aktivlaming 10 foizidan ortiqni tashkil etganda;
- d) bitim qiymati sof aktivlaming 25 foizigacha mi[^]domi tashkil etganda.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLAR,
JURNALLAR VA INTERNET TARMOG‘IDAN
OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR**

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR, JURNALLAR VA INTERNET TARMOG‘IDAN OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida (yangi tahriri)”, 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O‘RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni №310-II «Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida», 2001 yil 06 dekabr;
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni “Raqobat to‘g‘risida”, 2012 yil 6 yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 22 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O‘zbekiston, 2017 y., 104 b...
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida" gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari to‘plami. 2017 y., № 6, st. 70.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF №4720 “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2015 yil 24 aprel;
7. Mirziyoev SH. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. 2016 yil. 56 b.
8. Mirziyoev SH. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar.
9. Mirziyoev SH. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr.
10. Mirziyoev SH. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan.
11. Mirziyoev SH. “Ilm-fan yutuqlari – taraqqiyotning muhim omili” Yangi yil arafasida – 2016 yil 30 dekabr kuni mamlakatimizning etakchi ilm- fan namoyondalari bilan uchrashgan nutqi.

12. Mirziyoev SH. “Farzandlari sog‘lom yurtning kelajagi buyukdir” Sog‘liqni saqlash sohasining bir guruh etakchi mutaxassislari bilan uchrashuvdagi nutqi. 2017 yil 5 yanvar kuni.
13. Steen Thomsen & Martin Conyon – Corporate Governance, mechanisms and systems. McGraw-Hill Higher Education UK, 2012 – 367pp.
14. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp.
15. Kuznetsov S.V., Rastova YU.I., i Tyutikov YU.P. – Korporativnoe upravlenie (uchebnoe posobie dlya bakalavrov) – Izdanie SPbGEU, 2013 – 260 s.
16. Zaynutdinov SH.N. Korporativ boshqaruv asoslari. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston, 2008. – 260 b.
17. Xodiev B.YU., Berkinov B.B. “Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish” O‘quv Qo‘llanma. -T.: 2011 y.
18. Xodiev B.YU., Karlibaeva R.X., Akramova N.I. Korporativboshqaruv. O‘quv qo‘llanma. – TDIU, 2010. – 280 bet.
19. SHixverdiev A.P. – Korporativnoe upravlenie: uchebnoe posobie – Izdatelstvo SGU, 2015 – 241s.
20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori №207 “Davlat ulushi bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to‘g‘risida”, 2015 yil 28 iyul.
21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori №215 “Ustav fondida davlat ulushi bo‘lgan korxonalarning samarali boshqarilishini va davlat mulkining zarur darajada hisobga olinishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2006 yil 16 oktyabr
22. Korporativ boshqaruv kodeksi – Xalq so‘zi, 2016 yil 11 mart.

INTERNET TARMOG'IDAN OLINGAN TARQATMA MATERIALLAR

<https://www.youtube.com/watch?v=y81kijng3g0> - berkeley middle east inc. usa, corporate governance video

<https://www.youtube.com/watch?v=0reumep1wwk> -online corporate governance training

<https://www.youtube.com/watch?v=cbltlm80kxa> - leksiya sergeya gurieva "korporativnoe upravlenie: sovetы direktorov" iz kursa resh "finansы: prosto o slojnom"

<https://www.youtube.com/watch?v=cfoph8nf5n8> - «korporativnoe upravlenie», leksiya professora resh sergeya stepanova iz kursa «finansы: prosto o slojnom» pri podderjke kompanii ernst&young.

<http://lectoriy.mipt.ru/lecture/business-markcapfininst-l04-kontor-140227> - sliyaniya, poglosheniya i korporativnoe upravlenie

https://www.youtube.com/watch?v=fkd_1zb_6i4 - Korolyov v.a. «korporativnoe upravlenie dlya «nekorporatsiy» kak instrument realizatsii strategii»

<https://www.youtube.com/watch?v=innjfuubmkm> - korporativnoe upravlenie: mejdu anekdotom i jiznyu (a.d. berlin)

<http://www.investopedia.com/video/play/corporate-governance/> - corporate governance

<https://www.youtube.com/watch?v=dx7peke7wja> - corporate governance learning lecture

<https://www.youtube.com/watch?v=s5eoy988728> - corporate governance - what do shareholders really value? (lecture only)

<https://www.youtube.com/watch?v=gp3yqeodua0> - ouhk - corporate governance - principles, policies and practices lecture

FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR VA VIDEO ROLIKLAR

FANGA DOIR VIDEO MA'RUZALAR, VIDEO ROLIKLAR

<https://www.youtube.com/watch?v=y81kijng3g0> - berkeley middle east inc. usa, corporate governance video

<https://www.youtube.com/watch?v=0reumep1wwk> -online corporate governance training

<https://www.youtube.com/watch?v=cbltlm80kxa> - leksiya sergeya gurieva "korporativnoe upravlenie: sovetы direktorov" iz kursa resh "finansы: prosto o slojnom"

<https://www.youtube.com/watch?v=cfoph8nf5n8> - «korporativnoe upravlenie», leksiya professora resh sergeya stepanova iz kursa «finansы: prosto o slojnom» pri podderjke kompanii ernst&young.

<http://lectoriy.mipt.ru/lecture/business-markcapfininst-l04-kontor-140227> - sliyaniya, pogloщeniya i korporativnoe upravlenie

https://www.youtube.com/watch?v=fkd_1zb_6i4 - Korolyov v.a. «korporativnoe upravlenie dlya «nekorporatsiy» kak instrument realizatsii strategii»

<https://www.youtube.com/watch?v=innjfuubmkm> - korporativnoe upravlenie: mejdu anekdotom i jiznyu (a.d. berlin)

<http://www.investopedia.com/video/play/corporate-governance/> - corporate governance

<https://www.youtube.com/watch?v=dx7peke7wja> - corporate governance learning lecture

<https://www.youtube.com/watch?v=s5eoy988728> - corporate governance - what do shareholders really value? (lecture only)

<https://www.youtube.com/watch?v=gp3yqeodua0> - ouhk - corporate governance - principles, policies and practices lecture

**QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARI SHARHI**

QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI SHARHI

1. Ma’ruza mashg‘ulotlarning tashkil etishning asosiy shakllari

Ma’ruza mashg‘uloti – OO‘YUda o‘qitishni tashkil etishning etakchi shakli hisoblanadi, bilimlarni birlamchi egallashga yo‘naltirilgan.

Ma’ruzani asosiy belgilanishi – o‘qitishni nazariy asosini ta’minlab berish, o‘quv faoliyatga va aniq o‘quv fanga qiziqishni rivojlantirish, kursantlarga o‘quv kursi ustidan mustaqil ishlash uchun orientirlarni shakllantirish.

Ma’ruza materiallarining mazmuni va hajmiga talablar

Ma’ruza materiallarining *mazmuni* quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- yangilik, ilmiylik, asoslilik va axborot uchun belgilanganlik;
- aniq, ishonchli misol, fakt, asosnoma va ilmiy dalillarning mavjudligi;
- faktga asoslangan (statistik va v.h.) materiallarni ko‘p emasligi.

Ma’ruza materiallarining *hajmi* rejalashtirilgan mavzuni yoritish uchun etarli bo‘lishi kerak.

Ma’ruzalar turlari vaularga xos xususiyatlar

O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
<i>Kirish ma’ruzasi</i>	
Fan doirasida o‘quv axborotini o‘zlashtirish bo‘yicha talabalar harakatining yo‘naltiruvchi asosini ta’minlash.	Ta’lim berish tuzilishida motivatsion bosqich hisoblanadi. Uning vazifasi – o‘quv fani mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatdagi ahamiyati to‘g‘risida dastlabki tasavvurlarni berish, talabalarni ishlash tizimida yo‘naltirish, oldinda turgan mustaqil ishning uslubiyoti va tashkillashtirishi bilan tanishtirish, hisobot berish vaqti va baholashni aniqlashtirish.
<i>Axborotli ma’ruza</i>	
O‘quv mavzu bo‘yicha tasavvurni shakllantirish	Bu an’anaviy ma’ruza turi: ma’ruza rejasiga muvofiq o‘quv materialini monologik tarzda izchillikda bayon etish.
<i>Muammoli ma’ruza</i>	

O'quv mashg'ulotning maqsadi	Ma'ruza turi, uning o'ziga xos xususiyatlari
Muammoni belgilash va uni echimini topishni tashkillashtirish/an'anaviy va zamonaviy nuqtai nazarlarni jamlash va tahlil qilish va v.h. orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	YAngi bilimlar savol/vazifa/vaziyatlarning muammoligi orqali kiritiladi. Bu jarayonda talabalarning bilishi o'qituvchi bilan hamkorligiga va dialogiga asoslanadi, hamda izlanuvchilik faoliyatiga yaqinlashadi.
<i>Ko'rgazma ma'ruza</i>	
O'TVdan keng foydalanish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish, ko'rib chiqilayotgan ko'rgazmali materiallarni ochib berishga va qisqacha sharhlashga olib keladi.
<i>Binar ma'ruza</i>	
Talabalar gamunozara madaniyatini, muammoni hamkorlikda echishni namoyish etish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Bunday ma'ruzani o'qish ikki o'qituvchi/2-maktabning ilmiy vakillari/olim va amaliyotchi/o'qituvchi va talabalarning dialogini o'zida namoyon etadi.
<i>Anjuman-ma'ruza</i>	
O'quv axborotni izlash, tanlash va bayon etish jarayonida talabalarning faol ishtiroklarida yoritib berish orqali o'quv mavzusi bo'yicha tasavvurni/bilimlarni shakllantirish.	Oldindan belgilangan muammo va uni har tomonlama yoritib berish nazarda tutilgan ma'ruzalar tizimi (5-10 daq. davomiyligida) bilan, ilmiy-amaliy mashg'ulot ko'rinishida o'tkaziladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqil ish va so'zga chiqishlarga yakun yasaydi, axborotni to'ldiradi/aniqlik kiritadi, asosiy xulosalarni ifodalaydi.
<i>Umumlashtiruvchi ma'ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Ma'ruzada bayon etilayotgan nazariy holatlarning negizini kursning yoki katta bo'limlarning ilmiy-tushunchali va konseptual asosi tashkil etadi.
<i>Maslahatli-ma'ruza</i>	
Bilimlarni chuqurlashtirish, tizimlashtirish.	Turlicha ssenariy bo'yicha o'tishi mumkin. 1. "Savol-javoblar"- o'qituvchi bo'lim yoki to'liq kurs bo'yicha talabalar savollariga javob beradi.

	2. “Savol-javoblar-munozaralar”: o‘qituvchi nafaqat savollarga javob beradi, balki
O‘quv mashg‘ulotning maqsadi	Ma’ruza turi, uning o‘ziga xos xususiyatlari
	javoblarni izlashni ham tashkillashtiradi.
<i>Yakuniy ma’ruza</i>	
Bilimlarni batafsil yoritish va aniqlashtirishlarsiz tizimlashtirish.	Kursni o‘rganishni yakunlaydi, butun davr mobaynida o‘tilganlarni umumlashtiradi. YAkuniy ma’ruzada o‘qituvchi kursning asosiy g‘oyalarini ajratadi, kelgusidagi tezkor-xizmat faoliyatda va boshqa fanlarni o‘rganishda olgan bilimlarni qanday qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, fan bo‘yicha yakuniy nazorat xususiyatini tushuntiradi, yakuniy nazorat variantlarining murakab savollarini tushuntiradi.

2. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari

Amaliy mashg‘ulot:

- o‘quvchilarni o‘qituvchi bilan va o‘zaro faol suhbatga kirishishiga yo‘naltirilgan,
- nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi,
- olingan bilimlarni amaliy foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilishga mo‘ljallangan mashg‘ulotning o‘qitish shakli.
-

Amaliy mashg‘ulotning mazmuniga quyiladigan talablar

- muhokamaga munozarali savollar olib chiqiladi;
- muhokama qilinuvchi savollar ilm-fanning erishgan zamonaviy yutuqlari tomoni bilan ko‘rib chiqiladi;
- nazariya va amaliyotni uzviy birligi ochib beriladi;
- muhokama qilinuvchi materialning talabalarning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyati bilan aloqasi ta’minlanadi;
- ko‘rib chiqilayotgan material adabiyotda mavjud emas yoki material, qisman bayon etilgan.

Amaliy mashg'ulotlar turlari va ularga xos xususiyatlari

Amaliy mashg'ulot turi	Amaliy mashg'ulot shakli, uning o'ziga xos xususiyatlari
Talabalarning nazariy bilimlarini tizimlashtirish/ tuzilmaga keltirish/ mustahkamlash/ kengaytirish: - metodologik nuqtai nazaridan eng muhim va o'ziga xos fan mavzularining yaxshi o'rganish. - tushunish va o'zlashtirish uchun murakkab bo'lgan mavzu savollarini batafsil o'rganish. - kasbiy tayyorgarlik sifatini aniqlovchi, alohida asosiy bo'lgan mavzularni batafsil o'rganish.	Keng ko'lamli suhbat. Hamma uchun umumiy bo'lgan tavsiya etilayotgan majburiy va qo'shimcha adabiyotlar bilan mashg'ulotning har bir reja savollariga talabalarni tayyorgarligini nazarda tutadi. Faollashtirishni barcha vositalarini qo'llash bilan: so'zga chiquvchiga va barcha guruhga yaxshi o'ylab tuzilgan aniq ifodalangan savollar, so'zga chiquvchi talabalarni kuchli va kuchsiz tomonlariga talbalar diqqatlarini qarata olish, talabalar diqqatiga qiziqishini, ish jarayonida ochib berilayotgan, yangi tomonlarga o'sha vaqtni o'zida ajratib ko'rsatish va boshqalar asosida ko'pchilik talabalarni savollarni muhokama qilishga jalb qilish imkonini beradi. Keng ko'lamli suhbat ba'zi savollar bo'yicha alohida talabalarni avvaldan rejalashtirilgan qo'shimcha ravishda so'zga chiqishlarini istisno qilmaydi, balki, taxmin qiladi. Biroq bunday ma'lumotlar muhokama uchun asos bo'lmaydi, balki muhokama qilingan savollar uchun to'ldiruvchi bo'ladi. Ma'ruza va referatlar muhokamasi. Muhokamaga 12—15 daqiqa davomiyligidagi 2-3ma'ruzadan ko'p bo'lmagan ma'ruzalar olib chiqiladi. Ba'zida qo'shimcha ma'ruzachi va opponentlar (muxoliflar) belgilanadi. Oxirgi chiquvchilar mazmunni qaytarmaslik uchun, ma'ruza matni bilan tanishadilar. Biroq ko'p hollarda, ma'ruzachi va opponentlar, qo'shimcha ma'ruzachilardan tashqari, hech kim seminarga jiddiy tayyorlanmaydi. So'zga chiquvchilarni o'zlari ham faqat bir savolni o'rganadilar. SHu bilan birga, odatiy seminar ishiga "quruq nazariyalik" elementini kiritib, bunday mashg'ulotlar talabalarda ba'zi qiziqishlarni uyg'otadi. Talabalarni har birini qo'shimcha ma'ruzachi yoki opponentsifatida tayyorlanib kelishga o'rgatish juda muhim hisoblanadi. Referatli ma'ruzalarni yakuniy seminarda, uning asosiy savollari

avvaldan muhokama qilib bo‘lingan, katta bir mavzu bo‘yicha ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Press-konferensiya.

Qisqa so‘zga chiqishdan so‘ng birinchi savol bo‘yicha ma‘ruzachiga (agarda ma‘ruzalar bir qator talabalarga berilgan bo‘lsa, o‘qituvchining o‘zi ulardan biriga so‘z beradi) so‘z beriladi. SHundan so‘ng har bir talaba ma‘ruza mavzusi bo‘yicha unga savol berishi lozim. Savol va javoblar seminarining markaziy qismini tashkil etadi. Qancha ko‘p jiddiy tayyorgarlik ko‘rilsa, savollar shunchalik chuqur va mahoratli beriladi. Savollarga avval ma‘ruzachi javob beradi, so‘ngra u yoki boshqalar bo‘yicha istagan bir talaba o‘z fikrini bildirishi mumkin. Bunday holatlarda qo‘shimcha ma‘ruzachilar, agarda shundaylar belgilangan bo‘lsa, faol bo‘ladilar. O‘qituvchi har bir muhokama qilinayotgan savol bo‘yicha, yoki seminar yakunida o‘z xulosasini qiladi.

O‘zaro o‘qish.

Tushunish va o‘zlashtirish uchun eng ko‘p murakkablikdagi savollarni o‘rganish asosiy maqsadga ega bo‘lgan, seminar. Seminar mobaynidatalabalarni o‘zaro o‘qishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi: har kichik-guruhga mavzuning bir savoli beriladi, bu bo‘yicha ular ishlaydilar va bunga asos (ekspert varaqlar – savolni yoritish rejasi, tayyorlangan ma‘lumotlarni vizual taqdim etish bo‘yicha tavsiyalar) beriladi. Ekspert guruhlarining ish natijalari taqdimotidan so‘ng o‘qituvchi xulosalar qiladi.

YUmoloq (yozma /og‘zaki) stol.

O‘tgan mavzu bo‘yicha bilimlarni chiqurlashtirish va aniqlashtirish, bor bilimlarni safarbar qilish va har xil vaziyatlarda ularni qo‘llash, o‘z fikrlarini qisqa va asoslangan xolda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish asosiy maqsadga ega bo‘lgan, seminar.

Har xil ssenariylar bo‘yicha o‘tkazilishi mumkin.

1. «YOzma yumoloq stol» - talabaning savoli / echimi topilishi kerak bo‘lgan g‘oya yozilgan

	varaq, doira bo'yicha uzatiladi va har bir ishtirokchi o'z mulohazalarini qo'shadi. «Og'zaki yumoloq stol» - har bir talaba qo'yilgan savolning javobiga o'z qo'shimchalarini kiritadi / oldingi ishtirokchi tomonidan taklif qilingan g'oyani
<i>Ilm-fanning alohida xususiy muammolarini chuqurroq ishlab chiqish.</i>	qo'llab-quvvatlaydi va rivojlantiradi. Spetsseminar. Bakalavriatning 4 kursida, magistraturada o'tkaziladi. Ilmiy mavzu bo'yicha yosh tadqiqotchilarni muloqat maktabini ifodalaydi. Spetsseminar vaqtida talabalarning guruhlarda ishlashga va uni baholashga, ilmiy tadqiqotlar usullaridan foydalanishga intilishlari katta rol o'ynaydi. Spetsseminarning yakuniy mashg'ulotida o'qituvchi, qoidaga ko'ra, seminarlarni va talabalarning ilmiy ishlarini muhokama qilingan muammolarni kelgusida tadqiqotlar qilish istiqbollari va talabalarni ularda ishtiroq etish imkoniyatini ochib umumlashtiradi.
Maxsus (kasbiy) va umumio'quv ko'nikma va amaliy malakalarni shakllantirish: - amaliy muammoli vaziyatni tahlil qilish va echish jarayonida xarakteristik algoritmini aniqlash bilan bog'liq egallagan nazariy bilimlarni amaliy qo'llash.	Ta'limiy o'yin. O'qitish samaradorligini uning ishtirokchilarini nafaqat bilimlarni olish jarayoniga faol jalb qilish, balki ularni (hozir va shu erda) foydalanish orqali oshirishga imkon beradi; o'zgaruvchan vaziyatlarda o'zini tutish taktika ko'nikmalarini shakllantiradi; amaliyot imitatsiyasini ifodalaydi; aniq ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va ishlab berishga qaratilgan. Seminar natijaviyligini uning tashkiliy-uslubiy ta'minoti belgilaydi: o'yinning texnologik xaritasini ishlab chiqish; o'yin atributlarini va materiallar paketini: vaziyat bayoni, ishtiroksilar uchun yo'riqnomalar, personajlar ta'rifi (agar o'yin rolli yoki ishbilarmon bo'lsa) yoki vaziyatli ko'rsatmalar (agar o'yin modellashtiruvchi bo'lsa) tayyorlash. Amaliy topshiriqlarni bajarish. Amaliy topshiriqlarning ko'pchiligi kichik guruhlar tarkibida bajariladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: yo'riqnoma berish → o'quv topshiriqni bajarish bo'yicha

- yo'riqnomabilan tanishish
- topshiriqni bajarish
- natijalarning ommaviy taqdimoti
- natijalarni umumlashtirish va baholash.

Masalalar echish bo'yicha mashq.

Yakka tartibda amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

yo'riqnoma berish –

masalani echish – natijalarni tanlama taqdimoti - umumlashtirish.

Muammoli masalalar va vaziyatlarni echish.

Muammoli masalalar va vaziyatlarni ishlab chiqish juda katta mehnat talab qiladi. Lekin talabalartomonidan amaliy kasbiy faoliyatdan olingan muammoli masalalarni echish va muammoli vaziyatlarni ko'rib tahlil qilish nazariyani haqiqiy amaliyot bilan bog'lashga imkon beradi. Bu o'qitishni faollashtirishga imkon beradi, talabalarga o'rganilayotgan materialni amaliy foydalanish uchun yordam beradi.

Ta'lim beruvchi amaliy muammoli vaziyatlarni (keys larni) echish.

Keys (muammoli vaziyatdan farqli ravishda) talabalarni muammoni ifodalash, muammoli vaziyatni tahlil qilish va baholash, uni maqsadga muvofiq echim variantlarini qidirishga yo'naltiruvchi tashkilotlar, insonlar guruhi yoki alohida individlarni hayotining muayyan sharoitlarini yozma ravishda taqdim etilgan bayonini o'z ichiga oladi.

Keysni echish jarayoni quyidagi bosqichlarini o'z ichiga olish muhim:

- muammoni yakka tartibda tahlil qilish va echish,
- yakka tartibda topilgan echimni birgalikda (kichik guruhlarda) tahlil qilish, o'zaro maqbul echim variantini rasmiylashtirish,
- guruh ishini taqdimoti,
- muammoni echish usul va vositalarining eng maqbul variantini jamoaviy tarzda tanlash.

Fiklash jarayoni, muammoli vaziyatni echish jarayonida paydo bo'lingan, mustaqil topilgan dalillar orientirlarni, kasbiy boylklarni topishga va mustaqallashtirishga, kelgusi kasbiy faoliyati

	bilan aloqani anglashga ko'maklashadi. <i>O'quv loyihalarning taqdimoti va baholanishi</i> Ushbu o'quv mashg'ulotini tayyorlashda o'qituvchiningroli quyidagilardan iborat: loyiha topshirig'ini ishlabchiqish; talabalarga ma'lumotlarni izlashda yordamberish; o'zi axborot manbai bo'lishi; butun jarayonnimuvofiqlashtiri; ishtirokchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; uzluksiz qayta aloqani amalga
	oshirish; maslahat berish. Ushbu o'quv mashg'ulotida guruhlar o'z faoliyatining natijalari to'g'risida ma'ruza qilishadi va uni belgilangan shaklda taqdim etishadi (loyihaviy faoliyatning natijalarini, hamda loyiha maxsulotini tasviriy va og'zaki taqdimot ko'rinishida). O'qituvchi guruhlarning o'zaro baholanishini tashkillashtiradi va loyiha ishtirokchining faoliyatini baholaydi.
<i>Talabalarni nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasini nazorat qilish va baholash</i>	<i>Kollokvium.</i> O'qituvchining talabalar bilan kollokviumlari (suhbatlashuvi) odatda kursning u yoki bu mavzusi bo'yicha bilimlarini aniqlash, uni chuqurlashtirish maqsadida olib boradi. U ko'pincha 1) dasturda ko'zda tutilmagan, lekin talabalarda qiziqish uyg'otgan qo'shimchamavzular bo'yicha; 2) fanning alohida murakkab, lekin talabalar tomonidan etarli darajada o'zlashtirilmagan mavzulari bo'yicha qo'shimcha darslar mobaynida; 3) ohirgi seminar mashg'ulotlarida javob bermagan talabalarni birish darajasini aniqlash uchun. Seminar-kollokvium mobaynida ma'ruza, referat va boshq. Yozma ishlar tekshirilishi mumkin. <i>Yozma (nazorat) ish.</i> Talabalar nazorat savollariga javob beradilar/ testlarni yechadilar/nazorat topshiriqlarini bajaradilar. Ularning to'plamini to'g'ri tuzish muhim hisoblanadi: ular rejalashtirilayotgan o'quv materialni o'zlashtirish darajasiga mos kelishligi kerak va ularni tekshirishni ta'minlashi kerak.

3. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar

AQLIY HUJUM METODI

Aqliy hujum (breynstroming-aqlar to'zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar echish g'oyasini jamoaviy yuzaga keltirishda qo'llaniladigan metod.

☞ Metod chegaralangan vaqt oralig'i ichida aniq muammo (savol, masala)ni echishning noan'anaviy yo'llarini izlash bo'yicha o'quvchilarni aqliy faoliyatini yo'naltirishga asoslangan.


☞ O'quv mashg'ulotidagi aqliy hujum uchun muammoni tanlash quyidagi tamoyillar bo'yicha amalga oshiriladi:

- tanlangan muammo nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi hamda o'quvchilarda faol qiziqish uyg'otishi kerak;

- ko'p har xil ma'nodagi echim variantlariga ega bo'lishi kerak.

O'qitish texnologiyasini ishlab chiqishda aqliy hujum metodi o'quv mashg'ulotining bir lavhasi yoki butun mashg'ulotni o'tkazish asosi sifatida rejalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi 1-rasmda keltirilgan.



Aqliy hujum metodining texnologik chizmasi

INSERT TEXNIKASI

INSERT (inglizcha so'zdan olingan bo'lib - **INSERT** – Interaktive-interfaol **Noting** – belgilash **System** - tizim for-uchun **Effective** – samarali **Reading** – o'qish and– va **Thinking** – fikrlash degan ma'noni anglatadi).

1) Samarali o'qish va fikrlash uchun matnda belgilar qo'yishning interfaol tizimi hisoblanadi.

Matnni belgilash tizimi:

(√) - mening bilganimni tasdiqlovchi axborot;

(+) –men uchun yangi axborot;

(–) - menning bilganlarimga, zid axborot;

(?) – meni o‘ylantirib qo‘ydi. Bu bo‘yicha menga qo‘shimcha axborot kerak.

PINBORD TEXNIKASI

Pinbord–(inglizchadan: *pin*- mahkamlash, *board* – yozuv taxtasi) –

o‘quvchilarni tizimli va mantiqiy fikr bildirishga o‘rgatadigan metod.

Pinbord texnikasi:

1) muammoli masalalar va vaziyatlar, aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) muammoni echish variantlarini baholash hamda ular ichidan eng yaxshisini tanlash imkonini beradi;

2) aqliy hujum va amaliy o‘qitish metodlari bilan birga jamoaviy tarzda (guruhlarda) toifali sharh o‘tkazish imkonini beradi.

Pinbord texnikasining texnologik chizmasi

KEYS–STADI METODI

KEYS – (ingl. sase – to‘plam, aniq vaziyat) – nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni echish jarayonida qo‘llash imkonini beruvchi *o‘qitish vositasi*.

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor echimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda echiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

- keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;
- bayon qilingan muammoli vaziyatni echish uchun kerakli va etarli xajmda ma‘lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak
- keysni echish uchun *uslubiy ko‘rsatmalar* bo‘lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlarimethodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta‘lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli etishishni vositali tarzda ta‘minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo echimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)

2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

- savolli (savollar keysdan keyin keltiriladi)
- topshiriqli (topshiriqli keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

O‘QUV LOYIHA METODI

Ushbu metodning mohiyati shundan iboratki, ma’lum muddat ichida (bitta o‘quv mashg‘ulot doirasidan 2-3 oy muddat ichida) ta’lim oluvchi guruhli yoki yakka tartibda berilgan mavzu yuzasidan loyiha topshirig‘ini bajaradi. Uning vazifasi – muayyan foydalanuvchiga yo‘naltirilgan yangi ma’lumot olish, belgilangan muddat ichida berilgan u yoki bu muammoni ilmiy, texnikaviy echimidan iborat.

O‘quv loyihasi tushunchasi:

- muayyan iste’molchiga mo‘ljallangan, muammolarni izlash, tadqiq qilish va echish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan. Talablarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilish *usuli*;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni echishga qaratilgan o‘quv *vosita va qurollari*;

- rivojlantiruvchi, ta’lim-tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan *didaktik vosita*.

GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR

KLASTER (klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini umumlashtirish va aniqlash uchun qandaydirbiror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish asosida aniq biror mazmunni keltirib chiqaradi.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va keng jalb qilishda yordam beradi.

Klasterni tuzish bo‘yicha o‘quv topshirig‘iga yo‘riqnoma

1. Katta qog‘oz varag‘i markazida kalit so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat mavzu nomini aylana ichiga yozing.

2. Kalit so‘z bilan birlashdigan yon tomoniga kichkina hajmdagi aylana- “yo‘ldoshcha” ichiga mavzu bilan aloqador so‘z yoki so‘z birikmasini yozing. Ularni chiziq bilan “bosh” so‘zga bog‘lang.

3. Ushbu “yo‘ldoshcha”larda “kichik yo‘ldoshlar” ham bo‘lishi mumkin, ular ichiga yana so‘z yoki iboralar yozib ajratilgan vaqt tugagunga qadar yoki g‘oyalar tugamagunga qadar davom ettiriladi.

«NIMA UCHUN?» SXEMASI –muammoning dastlabki sababini aniqlash bo'yicha fikrlar zanjiri bo'lib,tizimli, ijodiy, tahliliy mushohada qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Nima uchun?» sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammosababini aniqlash uchun:

1) Muammoni yozing va strelka chizig'ini chiqarib «Nima uchun?» so'rog'ini yozing.

2) Savolga javob yozib nima uchun so'rog'ini takror yozib boravering. Bu jarayonni muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom ettiring


«BALIQ SKELETI» CHIZMASI – bir qator muammolarni tasvirlash va uni echish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

“Baliq skeleti” sxemasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

O'quv topshiriqda ko'rsatilgan muammo maydonini tavsiflash uchun:

1.«Baliq skeletini» chizing:

Муаммо ости
муаммолар



2. «Suyak»ning chap qismida (yoki yuqori suyakda) muammo osti muammoni yozing, o'ng qismida (pastki suyakda) – muammo osti muammoni amalda mavjud ekanligini tasdiqlovchi dalillarni yozing.

«QANDAY?» IERARXIK DIAGRAMMASI - muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olishga, uning echimini topish usul va vositalarini topishga imkon beruvchi mantiqiy savollar zanjiridan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

«Qanday?» diagrammasini tuzish bo'yicha o'quv topshirig'iga yo'riqnoma

«Qanday?» diagrammasini tuzishdan avval, siz quyidagilarni bilishingiz kerak: ko'p hollarda Sizga muammolar hal etishda «Nima qilish kerak?» haqida o'ylashga hojat bo'lmaydi. Muammo echimini topish uchun asosan «Buni qanday qilish kerak?» qabilida bo'ladi. «Qanday?» - muammoni hal etishda asosiy savol hisoblanadi.

1. Doira chizing va uning ichiga echilishi lozim bo'lgan muammoni yozing.
2. Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'ying va shu savolga javob bering. SHu tartibda savollarni ketma-ket berib boravering va javoblarni o'ylab o'tirmasdan, solishtirmasdan, baholamasdan, tez-tez yozishda davom eting.

Maslahat va tavsiyalar:

YAngi g'oyalarni grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz hal eting: daraxt yoki kaskad ko'rinishida, yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga. Eng muhimi esda tuting: nisbatan ko'p miqdordagi foydali g'oyalar va muammo echimlarini topishga imkon beradigan usul eng maqbul usul hisoblanadi.

Agarda siz muammoni echimini topish uchun to'g'ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo'nalishini namoyon bo'lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma, siz har qanday muammoni amaliy jihatdan echimini topishingizni kafolatlaydi.

«NILUFAR GULI» CHIZMASI - muammoni hal etish vositasi. Oʻzida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri oʻz navbatida toʻqqizta kichik kvadratdan iborat.

Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash qoʻnikmalarini shakllantiradi.

«Nilufar guli» sxemasini tuzish boʻyicha oʻquv topshirigʻiga yoʻriqnoma

Oʻquv topshiriqda koʻrsatilgan muammoni hal etish vositalarini topish uchun:

1) Oʻzida nilufar guli qiyofasini mujassam etgan sxemani chizing. Uning asosini 9 ta katta kvadratlar tashkil etib, ularning har biri oʻz navbatida toʻqqizta kichik kvadratdan iborat;

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

2) asosiy muammoni markaziy kvadratning markaziga yozing. Uni hal etish gʻoyalarini markaziy kvadrat atrofida joylashgan qolgan sakkizta kvadratlarga yozing;

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

MUSTAQIL TA'LIMGA OID TOPSHIRIQLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni № 4720 2015 yil 24 aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoning mohiyati va korporativ boshqaruvni rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish.

2. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan korporativ boshqaruv kodeksini xalqaro kodekslar bilan qiyosiy tahlili.

3. O'zbekistonda korporativ boshqaruvni rivojlantirishning huquqiy asoslari va xorijiy investorlarga berilgan kafolatlar.

4. Korporativ boshqaruv samaradorligini baholash mezonlari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2015 yil 28 iyulda qabul qilgan 207 sonli qarori tahlili.

5.. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.

6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonunlari to'plami. 2017 y., № 6, st. 70.

7.. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yil 22 dekabr kuni birinchi marta mamlakatimiz parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasi Toshkent : O'zbekiston, 2017 y., 104 b..

8.Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning institutsional asoslari

10.O'zbekiston respublikasida korporativ boshqaruv muammolari va ularni hal etish masalalari va korporativ boshqaruvning rivojlanish istiqbollari

11.Korporativ boshqaruv tizimi fanining perdmeti maqsadi va vazifalari

12. Korporativ tuzilmalarning strategiyalarining asosiy yo'nalishlari.

13.Korporativ boshqaruv nazorat organlari

14.Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimi .

15.xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi.

16.Oilaviy kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimi.

17.Ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda korporativ boshqaruv tizimi.

18.. Xo'jalik shirkatlarida korporativ boshqaruv tizimi asoslari.

19. O'zbekistonda oilaviy korxonalar va ularni boshqarish.

20. Moliya sanoat guruhlarida korporativ boshqaruv

21.Korporativ boshqaruv tizimida nazorat taftish komissiyasi

22. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat tashqi auditor

23. Korporativ boshqaruv tizimida nazorat korporativ kotib

GLOSSARIYLAR

GLOSSARIYLAR

O'zbek tilidagi sharhi	Rus tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi	Terminning sharhi
Agent	Агент	Agent	shartnoma asosida “agentlik to’lovi” ga amal qilgan holda boshqa shaxsning topshirig’iga kura birinchi hisob raqamdan ikkinchi hisob raqamga pul o’tkazish operastiyalarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxsdir
Anderrayter	Андеррайтер	Underwriter	shaxs yoki tashkilot ko’rinishida bo’lib, u qimmabahoqog’ozlarni ya’ni yangi chiqarilgan akstiya va obligastiyalarni investorlarga sotishda javobgarlikni va kafillikni o’z bo’yniga oladi.
Asimmetrik axborot	Ассиметрическая информация	Asymmetrical information	birinchi guruh etarli darajadagi axborotga ega bo’lishi, boshqa gunuhning axborotlarga ega bo’lmaslik holati
Autsayder	Аутсайдер	Outsider	korporastiya va uni boshqarishda qatnashmaydigan, “Mustaqil direktor” bo’lmagan, korporastiyaning ishchisi bo’lmagan lekin korporastiyaning akstiyasiga ega bo’lgan shaxs
Affillangan shaxs	Аффилированный лицо	Affiliated person	korporastiyaning faoliyatiga o’z ta’sirini o’tkaza oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs
Aksiyadorlik kapitali	Акционерный капитал	Share capital	akstiyadorlik jamiyatining akstiyalarini emissiya qilish yo’li bilan shakllantirgankapitali. Akstiyadorlik jamiyatining muassislari akstiyadorlik jamiyatini tuzish to’g’risidagi ta’sis shartnomasini imzolagan yuridik va jismoniy shaxslar

Assotsiyatsiya	Ассоциация	Association	Tijorat tashkilotlari o'rtasida ular faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, umumiy mulkiy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish maqsadida tashkil etiladigan birlashma tashkil qilgan jismoniy yoki huquqiy shaxslar birlashmasidir
Diversifikatsiya	Диверсификация	Diversification	har tomonlama rivojlantirish; yirik firmalar-birlashmalar yoki tarmoqlar faolligini kengaytirish
Dividend	Дивиденд	Dividend	bu foydaning soliqlar va majburiy to'lovlar to'langanidan, qayta investitsiya amalga oshirilganidan so'ng akstiyadorlar jamiyati ixtiyorida qoladigan, akstiyadorlar o'rtasida taqsimlanishi kerak bo'lgan qismi
Insayder	Инсайдер	Insider	kompaniya faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompaniya haqida tijorat axborotiga ega bo'lgan kompaniya xodimi.
Investitsiyalar	Инвестиции	Investment	pul mablag'lari sarflari bo'lib, tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga kiritiladigan foyda, yaratiladigan yoki ijtimoiy samara beradigan mulkiy yoki intellektual boyliklarning hamma turlaridir.
Investition faoliya	Инвестиционная деятельность	Investment activities	foyda olish yoki boshqa foydali samara olish uchun investitsiyalar qo'yish va amaliy faoliyatni tashkil qilishdir.

Yillik hisobot	Годовой отчет	Annual report	akstiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish jarayonida akstiyadorlik jamiyatlari xodimlariga va ushbu jamiyatning faoliyati bilan qiziquvchi shaxslarga taqdim etiladigan balans-zarar va foyda haqidagi hisobot, auditor va taftish komissiyasi xulosasi-jamiyat rahbariyatining kompaniya faoliyati bo'yicha, kompaniyani rivojlantirish va boshqarish haqidagi izohlari to'plami
Kartel	Картель	Cartel	narxlarni qat'iylashtirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini cheklash yo'li bilan foydani hamkorlikda ko'paytiradigan ishlab chiqaruvchi guruhlar.
Konsorstium	Консорциум	Consortium	bir necha banklar va kompaniyalarning yirik moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish uchun tuzilgan monopolistik birlashma.
Korporativ boshqaruv	Корпоративное управление	Corporate Governance	bu biznesning tashkiliy – huquqiy rasmiylashtirilishini, tashkiliy strukturalarning optimallashtirishini boshqarish, qabulqilingan maqsadlarga muvofiq kompaniyada ichki va tashqi firma munosabatlarini tashkil qilishdir
Korporatsiya	Корпорация	Corporation	(lotincha corporatio – birlashish) – bu umumiy maqsadlarga erishish, birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashgan va huquqning mustaqil sub'ektini – huquqiy shaxsni
Konsern	Концерн	Business concern	Manfaatlar umumiyligi, moliyalashtirish, ishlab chiqarish hamkorligi bilan bog'langan, yagona mulkchilik negizi va nazorat organiga ega bo'lgan korxonalar birlashmasi. Nazorat nizom kapitalida ishtirok etish tizimi orqali amalga oshiriladi

Konglomerat	Конгломерат	Konglomerat	Texnologik jihatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan ko'p sonli tashkilotlarning birikuvi (birlashishva qo'shib olish) natijasida vujudga keladigan struktura.
Kredit	Кредит	Credit	o'z egalari qo'lida vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum muddatga haq to'lash sharti bilan olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan ssuda kapitalining maqsadli xarakatini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlardir
Lizing	Лизинг	Leasing	bu zavodlarni, sanoat tovarlarini, uskunalarni, qo'zg'almas mulklarni mulk egasi tomonidan ularni ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatish uchun ijaraga berish to'g'risidagi shartnomadir.
Marja	Маржа	Margin	savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atamadir.
Moliya sanoat guruhlari (MSG)-	Финансовая промышленная группа (ФПГ)	Financial industrial group	MSG tashkil etish haqida shartnoma imzolagan, yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik sub'ektlari majmui. Tovar va xizmatlar ishlab chiqarish sohasida amal qiluvchi strukturalar va moliyaviy struktura mavjud bo'lishi shart. Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi shart.
Majoritar akstiyador	Мажоритарные акционеры	Major shareholders	kompaniya ustidan nazorat qilish uchun yirik akstiyalar paketi egalari.
Minoritar akstiyador	Миноритарные акционеры	Minority shareholders	kompaniya tijorat va siyosiy masalalarini hal etishda etarsiz akstiyalar paketiga ega shaxslar

"Oltin akstiya"	Золотая акция	Gold share	bu ayrim akstiyadorlik jamiyatlarini boshqarishda davlat ishtirokining maxsus huquqi bo'lib, u strategik ahamiyatga ega bo'lgan davlat korxonalari xususiylashtirilayotganda yoki akstiyadorlik jamiyatlarining davlat akstiya paketlari xususiylashtirilayotganda mulk etib realizatsiya qilinayotganda O'zbekiston Respublikasi Xukumatining qaroriga asosan joriy qilinadi va mamlakatning iqtisodiy manfaatlari ximoya qilinishini ta'minlaydi
Sindikatsiya	Синдикат	Syndicate	bir turdagi mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining o'z mahsulotlarini yagona savdo tarmog'i orqali sotishni tashkil etish maqsadida tuzilgan korporativ birlashma.
Trest	Трест	Trust	Turli tashkilotlar umumiy ishlab chiqarish majmuiga birlashadigan tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan birlashma. Bunda ular akstiyalar nazorat paketini yoki ishonch asosidagi shartnomani ishonch asosidagi kengashga berib, yuridik, ishlab chiqarish va tijorat mustaqilligini yo'qotadi.

**TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON
JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR**

TAVSIYA ETILADIGAN ELEKTRON JURNALLAR VA INTERNET SAYTLAR

Elektron jurnallar

1. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy-elektron jurnal.
www.iqtisodiyot.uz
2. Ekonomicheskoe obozrenie. www.cer.uz
3. Investopediya - <http://www.investopedia.com/>
4. Garvard biznes maktabi jurnali - Harvard Business Review articles on
CG <https://hbr.org/topic/corporate-governance>

Internet saytlar

<http://www.economist.com/topics/corporate-governance>
<http://www.efinancialnews.com/topic/corporate-governance>
<http://www.investopedia.com/>
<http://www.oecd-ilibrary.org/governance>
<https://hbr.org/topic/corporate-governance>
<https://www.frc.org.uk/>
<http://www.norma.uz/>
<http://lex.uz/>
<https://www.gov.uz/uz>
<http://uza.uz/oz/>
<http://www.cfin.ru/>
<http://economy.gov.ru/>
<http://www.nccg.ru/>